



*International Scientific  
Conference*

# **WOMEN INNOVATOR:**

**TOURISM AND TECHNOLOGY  
IN THE MODERN WORLD**

**APRIL 18th, 2024**

Tashkent city

[www.mdis.uz](http://www.mdis.uz)





**INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE PROCEEDINGS ON:**  
**«WOMEN INNOVATORS: TOURISM AND TECHNOLOGY IN THE**  
**MODERN WORLD»**

**April 18<sup>th</sup>, 2024**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ:**  
**«ЖЕНЩИНЫ ИННОВАТОРЫ: ТУРИЗМ И ТЕХНОЛОГИЯ В**  
**СОВРЕМЕННОМ МИРЕ»**

**18 апреля 2024 г.**

**XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**  
**«INNOVATOR AYOLLAR: ZAMONAVIY DUNYODA TURIZM VA**  
**TEXNOLOGIYA»**

**2024-yil 18-aprel**

**Tashkent – 2024**

**LBC 65.290-2**

**I - 69**

**The International Scientific Conference Proceedings on “Women Innovators:  
Tourism and Technology in the Modern World”**

Tashkent: Management Development Institute of Singapore in Tashkent, 2024. – 100 pages.

**KBK 65.290-2**

**Editors:** Sh.A. Karimova, N.I. Tukhtasinova, M.A.Jobborova

**Cover design:** M.A.Jobborova

**Languages:** Uzbek, English, Russian

*\*Articles were checked for plagiarism and grammar. The opinion of authors may not coincide with the position of the editorial board. The author bears full responsibility for the content of the article.*

This proceedings can be freely used and copied for non-commercial purposes, provided that the source is acknowledged. No part of this publication may be reproduced or transmitted in any form by any means, electronic or mechanical, including photocopy, or any information storage and retrieval system, without permission from MDIS Tashkent.

For ordering additional copies of the publication, please contact [innocenter@mdis.uz](mailto:innocenter@mdis.uz)

© Management Development Institute of Singapore in Tashkent, 2024

**ISBN - 978-9943-6856-7-3**

## CONTENTS

<b>IT SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI MUQADDAS VA TARIXIY QADAMJOLARNI RAQAMLASHTIRISH ("7 PIR" ZIYORATGOH MAJMUASI MISOLIDA)</b>	
Xodjaeva Mayluda Sobirovna, Jovliyeva Sevinch.....	5
<b>АЁЛЛАР ТАДБИРКОРИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА "АНОР" ОНЛАЙН ПЛАТФОРМАСИНинг ЎРНИ</b>	
Якубова Нигора Камалиддиновна.....	9
<b>IQTISODIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR</b>	
Gulyamova Gulnora Patahkamolovna, Botirova Nilufar Sherkulovna.....	12
<b>ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И СОЦИАЛЬНЫЙ ЭФФЕКТ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ТУРИЗМЕ ПО НАПРАВЛЕНИЮ STEM: ПРЕОДОЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ БАРЬЕРОВ И РАСШИРЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ГОРИЗОНТОВ</b>	
Rustamov Жамшид Эргашевич.....	19
<b>РОЛЬ ЖЕНСКОГО ТУРИЗМА В STEM В ФОРМИРОВАНИИ ИНКЛЮЗИВНОЙ И РАЗНООБРАЗНОЙ</b>	
Rustamov Жамшид Эргашевич.....	24
<b>ВНУТРЕННИЙ ЭКОТУРИЗМ – ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ</b>	
Якубова Нигора Камалиддиновна.....	30
<b>РОЛЬ ЖЕНЩИН В ТУРИСТСКОМ БИЗНЕСЕ: ЛИДЕРСТВО И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО</b>	
Sultanova Abduraimova Kamola.....	33
<b>SAYYOHLARNI JALB QILISHDA МЕНМОНХОНА TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA AYOL TADBIRKORLARNING FAOLIYATI</b>	
Abdumannanova Gulnoz Akmaljon qizi, G'ulomova Gulnora Pataxkamalovna.....	37
<b>O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY TAJRIBANI JORIY QILISHNING AHAMIYATI</b>	
Abduraimova Nilufar Ulug'bek qizi .....	42
<b>ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В ТУРИЗМЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ</b>	
Ибрагимова Раиса Григорьевна, Ашурова Замира Ослоновна.....	45
<b>BIZNES VA IT SOHALARIDA AYOLLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA ULARNING FAOLIYATI</b>	
Safarova Marjona Bahodirovna .....	47
<b>TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN INNOVATSION VA TEKNOLOGIK YECHIMLARNI TAKLIF QILISHDA AYOLLARNING O'RNI</b>	
Salimova Maxbuba .....	49
<b>START-UP TUSHUNCHASI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TURIZM SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI</b>	
Raximov Muzaffar Ibragimdjanovich, Numonov Mansurbek Nosirjon o'g'li .....	51
<b>O'ZBEKISTON TURIZMINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA TADBIRKOR AYOLLARNING</b>	

<b>TASHABBUSKORLIGINI QO'LLAB – QUVVATLASH</b>	
Fayyoza Xalimova Nafasovna .....	53
<b>INNOVATIVE USAGE OF WEBSITES FOR TEACHING DETAILS OF FEMALE REPRODUCTIVE SYSTEM AMONG TEENAGERS OF HIGH SCHOOLS</b>	
Bakhtiyorova Aziza Maksudbekovna, Abdullayev Ravshanbek Babajonovich .....	56
<b>IQTISODIYOTDA TURIZM RIVOJLANISHI TURG'UNLIGINI TA'MINLASHNING MATEMATIK MODELI</b>	
Yusupova Shaxlo Baxtiyor qizi .....	59
<b>TURIZM SOHASIGA MALAKALI DASTURCHILARNI YETKAZIB BERISH UCHUN UNIVERSITETLARDA DASTURLASH USLUBLARI VA PARADIGMALARI FANINI O'QITISHDA SEMIOTIK YONDASHUVNING SAMARADORLIGI</b>	
Xakimova Sanobar .....	62
<b>МУЗЕЙ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ</b>	
Урунбаева Юлдуз Пирназаровна.....	69
<b>ПОСТИНДУСТРИАЛ ЖАМИЯТДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ</b>	
Урунбаева Ю. П. .....	73
<b>OLIMA AYOLLAR – MILLAT KELAJAGINING POYDEVORIDIR</b>	
Gaziyeva N.Sh., Ortiqboyeva D.T .....	79
<b>ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЖЕНСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ</b>	
Абдуллаева Озода Сафиуллаевна.....	82
<b>BIRLASHGAN ARAB AMIRLIGI TURIZM XAVFSIZLIGI</b>	
Muxtorxonova Ozoda Axrorovna .....	85
<b>EXPLORING THE ROLE OF TECHNOLOGY IN ENHANCING TOURIST EXPERIENCES: TRENDS, CHALLENGES, AND OPPORTUNITIES</b>	
Shahzoda Akhmedova, Dr. Shalki Manhas.....	89

# **IT SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI MUQADDAS VA TARIXIY ZIYORATGOHLARINI RAQAMLASHTIRISH. (7 PIR ZIYORATGOH MAJMUASI MISOLIDA)**

**Xodjayeva Mayluda Sobirovna**

t.f.n., dosent, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

**Jovliyeva Sevinch**

"Axborot xavfsizligini boshqarish" yo'naliishi talabasi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Avvalo, raqamli transformatsiya tushunchasiga to'xtalib o'tsak, bu tashkilot yoki korxona, raqamli texnologiyalarni o'z biznes faoliyatining barcha sohalariga integratsiya uchun foydalanadigan jarayon bo'lib, mijozlar uchun o'z xizmatlarining salohiyatini keskin o'zgartirishdir. Va bugungi kunda bu raqobatbardosh va muvaffaqiyatli bo'lish juda muhimdir.

Ma'lumki, yurtboshimiz Sh.M.Mirzoyoyev tashabbuslari bilan ayollarning haq- huquqlarini himoya qilish, ularni ish bilan ta'minlash borasida juda ko'p islohotlar olib borilmoqda. Bu islohatlarning natijasi sifatida so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, ayollar uchun ham ko'plab ish o'rinnari yaratilganligi, ish bilan ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Biznes va IT sohasi ham eng rivojlanayotgan va eng muhim sohalardandir. Negaki hozirgi hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz, shuningdek har bir davlatning asosiy daromadi biznes orqali keladi, shuning uchun ham bu ahamiyatlidir. Bugungi kunda yangi texnologiyalar transformatsiyaning asosi bo'lib, o'z ichiga biznes jarayon, biznes model singari muhim sohalarni oladi. Shu jumladan, IT texnologiyalarining rivojlanishi turizm sohasi rivojining ajralmas bir qismi deb aytsak xam bo'ladi, Bugungi kunda turizm sohasiga oid ma'lumotlarni elektronlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda chet-el turizmidan tushgan daromad rangli va qora metallarning xalqaro savdosiga qaraganda ikki barovarga ko'pdir. Har bir turist boshqa mamlakatga tashrif buyurar ekan turli xizmatlardan foydalanadi: kompleks tashriflar, turlar va dam olish uchun xizmatlar paketi, joylashtirish (mehmonxona), ovqatlanish, transport, sayyohatning ajralmas qismi hisoblangan iste'mol mollarini xarid qilish va boshqalar.

Bunda ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali turli muammolarga yechim topiladi. Masalan, turli onlayn platformalar orqali turistlar sayohatlarni tashkillashtirish va qulayliklar, joylashuv va tashrif buyurish joylarini topishdagi qiyinchiliklar bartaraf etilishi mumkin. Raqamlashtirilgan ma'lumotlar orqali turistlar ko'proq ma'lumot olish mumkin bo'ladi, ularga tez va osonlik bilan kirish, qidirish va taqdim etish imkoniyatini beradi. Tarixiy ziyoratgohlar elektronlashtirilganda, ularning asosiy ma'lumotlari va axborotlari elektron shaklda saqlanadi. Elektron tarixiy ziyoratgohlar, saytlar, mobil ilovalar va boshqa elektron vositalar orqali oson va tez yo'ldan kirish imkonini beradi. Elektron tarixiy ziyoratgohlar, virtual sayohatlar orqali odamlarga tarixiy ob'ektlarni ko'rish imkonini beradi. Bunda, uzuksizlik, moliyaviy va boshqa cheklar bilan bog'liq bo'lmasdan, har bir inson o'zining xohish etgan tarixiy joylarga sayohat qilishi mumkin.

Turistik maskanlarni raqamlashtirish ahamiyati va buni biznesga aloqador xususiyatlarini ko'rib o'tdik. Bu jihatdan O'zbekiston ham ko'p turistik maskanlarga zamin makon hisoblanadi. Bir qancha tarixiy obidalarimiz YUNESKO dan ham joy olgan. O'zbekiston BMT qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotga (YuNeSKO) 1993 yili qo'shildi. Bu


doirada Xiva shahridagi “Ichan-qal'a”, “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” obekti, Buxoro va Shahrисabz tarixiy markazlari hamda Chotqol biosferasi (tabiiy meros) Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Bilamizki, O‘zbekiston ziyorat turizmi uchun qulay manzil hisoblanadi. Islom olamida mashhur ko‘plab ulamolar yurtimizda yashab ijod qilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo‘lgan tarixiy qadamjolar ko‘p.


Ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma’nosini anglatuvchi Buxoroyi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri. Buxoro – Naqshbandiya tariqati yetta buyuk so‘fiylarining vatanidir. Hozir kunda ziyoratgohga tashrif buyiruvchilarga ziyoratgoh haqida ma’lumotlar berishni axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan elektron qo’llanma mavjud bo’lib, uni hal qilinishi esa ziyoratgoh haqida tashrif buyuruvchilarga ma’lumotlar olishida juda qulay hisoblanadi. Bu esa sayyoхlar uchun bu ziyoratgohlar majmuasi haqda elektron qo’llanma ishlab chiqish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Taqdim etilayotgan “7 pir” ziyoratgohi haqida ma’lumotlar beruvchi veb-sayt va ilova sifatida elektron qo’llanma ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu elektron qo’llanma orqali bu qadamjolarga dasturdagi foto va video galereyalar orqali virtual sayohat uyushtirish mumkin. Ushbu dastur bir qancha afzalik va qulaylik tamonlarini taklif etadi. Unda har bir ziyoratgoh uchun geolokatsiya va muhim ma’lumotlar, ma’lumotlarning audio formati, maqolalarda ishlatilgan atamalar uchun izohlar.

Quyida 7 pir. Ziyo.uz. elektron qo’llanmasidan namunalar keltirilgan.



*Web-saytdan parcha*



*Mobil ilovadan lavhalar*

Taqdim etilayotgan dastur quyidagi bo'limlardan iborat:

**Yangiliklar** - ziyoratgohlarga oid yangiliklar

**7-Pir**- har bir ziyoratgoh haqda ma'lumot

**Fotogalereya**- ziyoratgohlarning turli yillardagi holati haqda rasmiy ma'lumotlar

**Video**-har bir ziyoratgohga virtual sayohat

**Geolokatsiya**- ziyoratgohlar manzili

**Izohlar**-maqolalarda ishlataligan atamalar uchun izohlar

**Ziyoratgohlar** - "Vaqf" xayriya jamoat fondi Buxoro viloyat filiali tasarrufidagi ziyoratgohlar ro'yxati

**Mobil ilova**- mobil ilova uchun link

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xabar.uz
2. <https://uzbekistan.travel/>
3. M. Amonboyev, D.I. Abidova, N.A. Jurayeva. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti - o'quv qo'llanma.
4. Religions.uz

# АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА “АНОР” ОНЛАЙН ПЛАТФОРМАСИНИНГ ЎРНИ

**Н.К.Ёкубова**

Тадқиқотчи, “Тадбиркор аёл” халқаро ишбилиармон аёллар ўюшмаси раиси ўринбосари, сайёхлик агентлиги асосчиси

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев Халқаро хотин-қизлар кунига бағишиланган тантанали маросимдаги нутқида (2024й.) айтдилар: Мамлакатимизда аёллар тадбиркорлигини янги босқичга кўтариш, уларнинг бандлигига кўмаклашиш мақсадида, маҳсус комиссия ташкил этилади. Ушбу комиссия келгуси йил 8 марта қадар ҳар бир ҳудудда “фавқулодда ҳолат” режимида ишлаб, хотин-қизларни касб-ҳунарга ўқитиш, бандлигини таъминлаш ва тадбиркорликка жалб этиш бўйича ишларни мутлақо янгича ёндашувлар ва тизим асосида ташкил қиласи. Юртимизда “Қизлар академияси” платформаси яратилиб, 100 минг нафар опа-сингилларимизга молиявий, ҳуқуқий, психологик, репродуктив билим бериш йўлга кўйилади.

Ўзбекистон Президенти томонидан ҳар йили 5000 нафар хотин қизларни тадбиркорликка бепул ўқитиш, 15 000 нафар аёлларни ишга жойлаштириш вазифаси кўйилди. Ягона онлайн ўқитиш тизими яратилса ҳар бир ҳудуддан бир ойда ўртача 60 нафар аёлларни, мамлакат бўйича 840 нафар аёлни, бир йилда эса 11 760 нафар хотин - қизларни тадбиркорлик асосларига бепул ўқитиш имконияти пайдо бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 8-январдаги «Хотин - қизларни ижтимоий қўллаб -қувватлаш қўшимча чора- тадбирлари тўғрисида»ги қарорда «Тадбиркор аёл» Халқаро ишбилиармон аёллар ассоциацияси ва бошқа масъул ташкилотларга хотин - қизларни тадбиркорликка ўқитиш, кредит олиш ва бизнесларини юритишларига амалий ёрдам кўрсатиш вазифаси юкланган.

“АНОР” лойиҳасининг асосий мақсади - тадбиркорликни бошламоқчи бўлган ва ёки бизнесини янги босқичга чиқариб ривожлантироқчи бўлган аёл қизларимизга қулай Online орқали маҳсус курсларни тақдим этувчи платформани яратиб, уларни оғирини енгил қилиш, аёлларни бизнес мухитини янги поғонага чиқаришдан иборатдир!



Тадбиркорлик фаолиятини бошлаётган хотин-қизларда тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш, уларни керакли касб - ҳунарга йўналтириш, ўқитиш ва қайта тайёрлаш, малакасини ошириш учун ноёб онлайн платформа ишлаб чиқилди.

Тадбиркорликнинг турли йўналишларида хотин қизлар фаолияти самарадорлигини ошириш, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишга қаратилган ўқув услубий қўлланмалар яратилди.

Тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўймоқчи бўлган аёллар учун бизнес кўникмалар

шакллантирувчи, уларни касбга йўналтирувчи, қайта тайёрловчи ва малакасини оширувчи онлайн платформа ташкил этилиши таълим жараёнларини масофавий ташкил этиш имкониятини беради.

Лойиҳа «Тадбиркор аёл» ассоциацияси ташабbusи билан илгари сурилган. Лойихада иқтисодиёт, хуқуқ ва илмий тадқиқотлар олимлари, Ассоциациянинг масъул етакчи ходимлари иштирокида бажарилган.

Ассоциациянинг мамлакат худудларида 83 та давлат рўйхатидан ўтган бўлимлари мавжуд бўлиб, 200 нафардан ортиқ бизнес тренер ва мутахассислари фаолият юритмоқдалар. Ассоциация 30 йиллик тарихга эга бўлиб, хотин қизларга бизнес таълим бериш фаолиятига ихтисослашган.

Ўтган даврда маҳаллий ва хорижий ташкилотлар билан ҳамкорликда аёллар иқтисодий, молиявий, хуқуқий билимларини оширишга қаратилган 100 дан ортиқ лойиҳалар муваффақиятли амалга оширилган.

Таълим дастурлари баробарида бизнес қилмоқчи аёллар учун ўқув методик қўлланмалар ишлаб чикилиб, уларга бепул тарқатиб берилган. Натижада, 50,3 минг нафар хотин -қизлар тадбиркорлик кўникмаларига эга бўлдилар. Уларнинг 80 фоизи иш билан банд бўлди. 43 минг нафарлари ўз тадбиркорлик фаолиятларини йўлга қўйишга муваффак бўлдилар. Мухими, Ассоциация хотин қизларни бизнес ва тадбиркорлик асосларига ўқитишга ихтисослашган.

Лойиҳанинг асосий мақсади: тадбиркорлик фаолиятини бошлаш истагидаги аёлларни ўқитиш ва қайта тайёрлашнинг ягона онлайн тизимини шакллантириш. Мазкур тизим тадбиркорликни ривожлантириш орқали аёллар турмуш даражасини ошириш, аёллар учун янги, барқарор даромад манбаларини шакллантиришга хизмат қиласди.

Лойиҳа мақсадлари - Ўзбекистон аёллари учун халқаро меъёрлар ва стандартларга мувофиқ инновацион технологиялар, хуқуқий хужжатлар, ўқув услубий қўлланмалар асосида онлайн бизнес таълим тизимини ва дастурий йўриқномаларини яратиш, аёлларни тадбиркорликка ўқитиш ва қайта тайёрлаш, малакасини ошириш учун ягона онлайн платформасини шакллантириш, лойиҳани амалга ошириш орқали тадбиркорлик асослари тизимли ўқув жараёнини йўлга қўйиш ва уларнинг умумий билимларини ошириш учун ягона онлайн платформани ишга тушириш, ягона онлайн платформадан фойдаланиш бўйича амалий қўлланма тайёрлаш.

Илмий базани шакллантириш – таҳлилий маъruzалар, ўқув – методик қўлланмалар билан таъминлаш, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, онлайн ўқув дастурлари орқали ҳуқуқий ва молиявий билимларини мустаҳкамлаш.

Замонавий технологиялардан фойдаланиш – Пандемия онлайн ишлаш ва онлайн ўқиши тизими қанчалик долзарб, оқил ва самарали жараён эканлигини кўрсатди. Аксарият ривожланган хорижий мамлакатларда бундай тизим ўз самарасини бериб келмоқда.

Ижтимоий – иқтисодий таъсири – Онлайн платформанинг яратилиши тадбиркорликни ривожлантириш ва таълим соҳасида муҳим ижтимоий ижобий самара беради. Бизнес тренинглар ўtkазиш, кофе брейклар, тушлик, йўл харажатлари, бизнес тренерларга гонорарлар, бино ижараси ва бошқа ташкилий ишларга кетадиган харажатлар тежаб қолинади. Хотин қизлар хонадон юмушларидан ажралмаган ҳолда тадбиркорлик асосларини ўрганиш имкониятига эга бўладилар.

Тижоратлаштириш истиқболлари – лойиҳа натижаларини тижоратлаштириш истиқболлари дастурий таъминотни амалда тадбиқ этиш билан боғлиқ бўлиб, тижорат банклари томонидан бериладиган кредитларни олиш, ўз бизнесини ривожлантириш

мақсадидаги хотин-қизларга маълум миқдорда маблағ тўлаб масофавий таълим олиш имконини беради. Дастурий таъминотдан бошқа турдош таълим муассасалари ҳам фойдаланишлари мумкин.

Муаммонинг илмий ечимини таъминлаш усуллари ва илмий ёндошувлар:

Ўзбекистонда аёллар тадбиркорлигини янада ривожлантириш “йўл харитаси”ни ишлаб чиқиш, аёлларнинг тадбиркорлик соҳасидаги билим ва кўнгикмаларини оширишга қаратилган ОНЛАЙН платформа яратилди.

Тадбиркор аёлларга амалий қўлланмалар тайёрлаш учун Онлайн платформа тизимидан фойдаланган ҳолда тадбиркорлиги ривожланган, қонун ҳужжатлари ўхшаш бўлган хорижий давлатлар меъёрий ҳужжатларини ўрганилди.

Масъул ва манфаатдор ташкилотлар билан бирга қўйидаги тадбирлар ташкил этилди:

Лойиҳа бошида ва якунида 2 та Давра сухбати;

Платформа тақдимоти бўйича 1 та конференция;

Платформа бошқарувчилари учун 1 та ўқув семинари;

Онлайн платформани яратилди ва синовдан ўтказилди;

Тадбиркорлар, кенг жамоатчилик вакиллари учун ахборот материаллар тайёрланди;

Veb-саҳифаларга онлайн платформа юклаб олиш ҳаволаси яратилди;

ОАК ва бошқа нуфузли халқаро ва миллий илмий журналларда, электрон нашрларда юқоридаги фаолият, таҳлил, тадқиқот натижалари ҳақида материалар чоп этилди.

Лойиҳанинг ҳозирги статуси.

Moodle ДТ базасида индивидуал дизайн билан онлайн – платформа мослаштирилган версияси ишлаб чиқилган

Платформа керакли уланиш тезлиги (трафик) билан Ассоциациянинг виртуал серверига жойлаштирилган

Платформага ўзбек ва рус тилларида 6 та, жами 12 та интерфаол онлайн курслар жойлаштирилган

Платформа керакли материаллар, яъни тадбиркорликка оид қонунчилик ҳужжатлари, ўқув қўлланмалари, мақолалар, маъruzалар билан тўлдириб борилмоқда

Платформага кирувчилар учун тизимдан фойдаланиш йўриқномаси ишлаб чиқилган ва уни ҳар бир фойдаланувчи эркин ўқиши мумкин

Сертификат шакллари ишлаб чиқилган

Тез фурсатда платформададан фойдаланиш бўйича Ассоциация низоми ишлаб чиқилади

Онлайн платформанинг 2 нафар администратори ўқитилди ва улар иш бошлашди.

Онлайн-платформанинг ривожланиши:

Ўқувчи шахсий кабинетини автоматик равища қайд этишни жорий қилиш.

Курс муваффақиятли тамомланганда автоматик равища сертификат бериш.

Онлайн курслар базасини янги мавзу ва чуқурлаштирилган модуллар билан тўлдириш.

Онлайн-платформадан «Аralаш таълим» (blended learning) элементи сифатида фойдаланиш.

Платформада бепул видеоконференц - алоқа ва вебинарлар тизимини яратиш ва ишга тушириш.

Республика Олий таълим муассасалари ва манфаатдор ташкилотлар ўқув тизимлари билан интеграция қилиш.

Moodle да курсларни доимий яратувчисини ўргатиш ва платформанинг ўзида янги курслар яратиш.

# ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Гулямова Гулнора Патахкамаловна

и.ф.н., доцент

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Ботирова Нилуфар Шерқуловна

PhD, доцент

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Ўзбекистонда туризмнинг барча турларини ривожлантириш имкониятлари юқорилиги мутахассислар томонидан таъкидланмоқда. Мамлакатимизда қабул қилинган “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Консепсияси”да 2019- 2025 йилларда туризм соҳасини ривожлантиришда туризмни миллий иқтисодиётнинг стратегик соҳасига айлантириш, туристик хизматларни диверсификациялаш ва сифатини ошириш ҳамда туристик инфратузилмани, шу жумладан, хорижий сармояларни жалб қилиш ва самарали реклама-маркетинг ишларини олиб бориш эвазига такомиллаштириш орқали эришиш вазифаси қўйилди.<sup>1</sup>

Тарихий ва диний диққатга сазовор жойларга бой Ўзбекистон зиёрат туризмини ривожлантириш учун улкан салоҳиятга эга. Юритимизда дунёнинг турли бурчакларидан келган зиёратчиларни ўзига тортадиган кўплаб зиёратгоҳлар, мақбаралар, масжидлар ва тарихий обидалар жойлашган. Туризмнинг ушбу турини ривожлантириш нафақат ҳудудларнинг иқтисодий юксалиши, балки мамлакат маданий меросини асраб-авайлаш ва тарғиб қилишга ҳам хизмат қиласди.

Ўзбекистонда иқтисодиётни модернизация ва диверсификация қилишга қаратилган жадал иқтисодий ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ушбу ўзгарувчилар туризм саноати, жумладан, зиёрат туризмига турли хил таъсир кўрсатади. Инвестиция сиёсатидаги ўзгаришлар, транспорт ва меҳмонхона инфратузилмасини ривожлантириш, шунингдек, халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш Ўзбекистонга кўпроқ зиёратчилар ва сайёҳларни жалб қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиши мумкин. 2023 йил 11 сентябрда қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида хорижий туристлар сонини 15 миллионга, ички сайёҳлар сонини 25 миллионга, зиёрат туризми бўйича келадиган туристлар сонини 3 миллион нафарга ошириш вазифалари белгилаб берилган<sup>2</sup>.

Ўзбекистонда зиёрат туризмининг шаклланиши ва ривожланишида иқтисодий ўзгарувчилар муҳим рол ўйнайди. Ушбу ўзгарувчиларни чуқур таҳлил қилиш учун иккита асосий жиҳатни кўриб чиқиши лозим: туризм индустряясига таъсир этувчи асосий иқтисодий ўзгарувчилар ва туризм инфратузилмасининг ривожланишига таъсир этувчи инвестиция муҳитидаги ўзгаришлар.

1. *Туризм саноатига таъсир этувчи асосий иқтисодий ўзгарувчилар таҳлили қуийидагилардан иборат:*

– макроиқтисодий барқарорлик: бекарор иқтисодий шароитлар туризм индустряясига салбий таъсир кўрсатиши, ноаниқликни келтириб чиқариши ва мамлакатдаги туристларнинг

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.01.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5611-сонли Фармони.

<sup>2</sup> Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон

ишенч даражасини пасайтириши мумкин.

– даромад даражаси ва аҳоли фаровонлиги: маҳаллий аҳоли даромадларининг юқори даражаси ва барқарор иқтисодий ривожланиш туризм хизматлари, жумладан, зиёрат туризмига ички ва ташқи талабнинг ошишига ёрдам беради.

– миллий валюта курси: миллий валюта курсининг ўзгариши чет эллик сайёҳлар учун саёҳат харажатларига таъсир қилиши мумкин, бу эса уларнинг мамлакатга бориш қарорига таъсир қилиши мумкин.

## 2. Инвестиция муҳитидаги ўзгаришлар ва уларнинг туризм инфратузилмасини ривожлантиришига таъсирини баҳолаши:

– инвестицияларни жалб қилиш: қулай сармоявий муҳит туризм инфратузилмасини ривожлантириш, жумладан меҳмонхоналар қуриш, транспорт тармоғини ривожлантириш ва зиёрат туризми учун зарур бўлган бошқа обьектларни яратиш учун ҳам маҳаллий, ҳам хорижий инвесторларни жалб қилиши мумкин.

– такомиллаштирилган инфратузилма: янги йўллар, аэропортлар, маданий мерос обьектлари ва жамоат жойларини қуриш каби инфратузилмани ривожлантиришга йўналтирилган инвестициялар сайёҳлар учун янада қулай муҳит яратади ва мамлакатимизга зиёратчилар сонининг кўпайишига хизмат қиласди.

Иқтисодий ўзгаришлар ва инвестиция муҳитидаги ўзгаришлар Ўзбекистонда зиёрат туризмининг ривожланишига бевосита таъсир кўрсатади. Барқарорлик сиёсати, қулай сармоявий муҳит ва туризм инфратузилмасини ривожлантириш зиёратчилар ва мамлакатимизга ташриф буориши истагида бўлган сайёҳлар учун жозибадор муҳит яратища муҳим аҳамият касб этмоқда.

Инновацион технологиялар сайёҳларни зиёрат туризмига жалб этиш ва сақлаб қолища муҳим рол ўйнайди. Улар зиёратчиларнинг имкониятлари ва тажрибасини оширади, саёҳатни янада қизиқарли, маълумотли ва ҳаяжонли қиласди.

XXI аср жаҳон иқтисодиётида ахборот инқилоби асосида рақамлаштириш жараёнининг фаол амалга ошириши билан боғлиқ. Ҳозирги вақтда иқтисодиётга глобал рақобатбардоши рақамли технологияларни жорий этиш давом этмоқда, жумладан, илғор ишлаб чиқариш, ахборот, телекоммуникация, шунингдек сунъий интеллект тизимлари, виртуал ҳақиқат ва шунга мувоғиқ равиша иқтисодиётни рақамли форматга ўтказиш ёки, бошқача қилиб айтганда, рақамли иқтисодиётни шакллантириш жараёни юз бермоқда. Шу билан бирга туризмни ривожлантириш бўйича хориж тажрибасини ўрганиш туризмда ҳам инновацияларни кенг кўллаш заруриятини кўрсатиб берди.

Замонавий технологиялар зиёрат туризмига таъсир қиласидиган баъзи жиҳатлар 1-жадвалда келтирилган.

### 1-жадвал

#### Замонавий технологияларнинг зиёрат туризмига таъсири<sup>3</sup>

Замонавий технологиялар	Таъсири
Мобиль иловалар	Зиёратчилар учун ихтисослаштирилган мобиль иловалар зиёратгоҳлар, мамлакат тарихи, диний урф-одат ва анъаналар ҳақида маълумот олиш имконини беради Иловаларда берилган зиёратгоҳлар белгиланган худуднинг интерактив хариталари, хизмат кўрсатиш ва бошқа диний тадбирлар жадвали ҳақидаги маълумотлар

<sup>3</sup> Муаллифлар ишланмаси

	тақдим этилиши мүмкін
<i>Виртуал ҳақиқат (VR)</i>	VR технологияларидан фойдаланиш сайёхларга зиёратгоҳлар ва тарихий манзилларни улар етиб келгунига қадар виртуал зиёрат қилиш имконини беради  Виртуал саёхатлар зиёратчиларга бориш қийин бўлган ёки асосий зиёрат йўлларидан узоқ бўлган жойларни қўриш имконини беради
<i>Интерфаол қўргазмалар ва мультимедиа қурилмалари</i>	Музей ва зиёратгоҳларда зиёратчилар ушбу жойнинг маданий-тарихий аҳамияти ҳақида қўшимча маълумот олишлари мүмкін бўлган интерактив экспонатлардан фойдаланиш сайёхлар эътиборини кўпроқ жалб қиласди  Мультимедиа қурилмалари, масалан, танланган тилларга эга аудио қўлланмалар зиёратгоҳлар ва тарихий жойларни зиёрат қилиш тажрибасини бойитади

Рақамли иқтисодиётга ўтишнинг асоси сифатида рақамлаштириш жараёни обьектив воқелик талаблари билан белгиланади ва биринчи навбатда унинг субъектлари фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланишга таянади. Рақамли технологиялар иқтисодий фаолиятни ташкил этиш шаклларининг ўзгаришига олиб келади, ҳодисаларнинг моҳиятини мураккаблаштиради, уларни ўзгартиради. Сўнгти пайтларда турли мамлакатларда рақамли иқтисодиёт устувор йўналиш бўлиб келмоқда, буни рақамли технологияларни ривожлантириш ва рағбатлантиришга қаратилган давлат дастурлари ва стратегиялари мавжудлиги ҳам кўрсатмоқда.Faқат Европа Иттифоқи (ЕИ) мамлакатларида, Европа Комиссиясининг маълумотларига кўра, 2019 йилда иқтисодиётни рақамлаштириш бўйича 30 дан ортиқ миллий ва минтақавий дастурлар мавжуд эди. Рақамли ривожланиш индекси (ДЕСИ) бўйича рақамли технологияларни ривожлантиришда етакчи ўринларни Норвегия, Швеция, Швейцария, Дания, Финляндия, Сингапур, Жанубий Корея, Буюк Британия, Гонконг ва АҚШ эгаллайди. Рақамли иқтисодиёт ва жамият индексини ҳисоблаб чиқувчи Европа комиссияси маълумотларига кўра, 2018 йилда Финляндия, Швеция, Нидерландия ва Дания иқтисодиётни рақамлаштириш бўйича етакчи бўлди.<sup>4</sup> Аммо шуни таъкидлаш керакки, етакчи давлатларнинг позитсияси ўзгариши мүмкин. Faқат инновацияларга очиқлик, уларни фаол амалга ошириш учун институтсионал шарт-шароитлар яратиш иқтисодиётни янада ривожлантириш учун имкониятлар яратади.

Экспертлар бир қатор давлатларни, жумладан, Хитой ва Ҳиндистон каби мамлакатлар ҳозирда рақамли технологияларни ривожлантиришнинг пастроқ даражасида, лекин ўсишга тайёрлигини кўрсатмоқда, улар инвесторлар учун жозибадор ва динамикаси секинлашган мамлакатларни сиқиб чиқариши мүмкин. Ўзбекистон Республикасида ҳам рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўлида дастлабки қадамлар қўйилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги «Рақамли Ўзбекистон 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони билан тасдиқланган «Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегияси иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий соҳа ва давлат бошқаруви тизимининг жадал рақамли ривожланишини таъминлаш, шу жумладан, электрон давлат хизматларини кўрсатиш механизmlарини янада

<sup>4</sup> Индикаторы цифровой экономики: 2021: статистический сборник / Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гохберг и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: НИУ ВШЭ, 2021. – 380 с.

такомиллаштириш мақсадида ишлаб чиқилган бўлиб, унда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари белгиланди ҳамда рақамли технологиялар миллий бозори учун қулай муҳитни яратиш ва истиқболли «рақамли» стартапларни ривожлантириш мақсади қўйилди. Мамлакат иқтисодиётини рақамлаштириш йўналишлари белгилаб олинди.

Хизмат кўрсатиш соҳасида етакчи ўринларни эгаллаши зарур бўлган туристик фаолият субъектлари фаолиятнинг турли соҳаларига инновацияларни жорий этиш учун майдон бўлиб хизмат қиласи. Шу боис рақамли технологиялар, мобил интернетдан фойдаланиш замонавий туризмни ривожлантириш манбаи бўлиши мумкин.

Худудий туризм секторини рақамли иқтисодиётга жалб қилиш қўйидаги усуллар билан амалга оширилиши мумкин (1-расм):

- янги бизнес моделларини шакллантиришга олиб келадиган ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида туризм секторини рақамлаштириш;

- туризм фаолиятини рақамлаштириш давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Пандемиядан кейинги даврда чекловлар босқичма-босқич бекор қилингандан сўнг, туризм соҳаси тиклана бошлади ва туристик оқимларни бошқариш ва янги шароитларда фуқароларнинг хавфсиз фаолиятини рағбатлантириш учун замонавий воситалардан фойдаланиш жуда муҳимдир. Бу бизнес моделлари ва жараёнларини рақамли трансформатсиясининг долзарблигини оширади.

Ўзбекистон вилоятларида туристик кластерларни ривожлантиришнинг асосий мақсади ижтимоий-иқтисодий ривожланишни рағбатлантириш, минтақада тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай муҳит яратиш, иш ўринларини кўпайтириш, аҳолининг турмуш даражасини яхшилашдир. Ўзбекистонда туризм саноатининг муваффакияти ушбу соҳани давлат томонидан қай даражада қўллаб-куvvatланишига бевосита боғлиқ. Тошкент вилоятида туризм саноатининг муваффакиятли ривожланиши учун туристик фаолиятнинг барча секторлари фаолиятини мувофиқлаштирадиган кенг қамровли минтақавий ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш керак. Хорижий аналогларга нисбатан минтақавий маҳсулотнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида. Туризм индустрисини минтақавий меҳмондўстлик саноатининг ривожланишида кўпаювчи таъсирини яратишга қодир деб ҳисоблаш керак, айрим корхоналарда эса ижтимоий-иқтисодий ривожланиш режаларининг асоси бўлиши керак.

Ўзбекистон вилоятларида туристик кластерларни ривожлантиришнинг асосий мақсади ижтимоий-иқтисодий ривожланишни рағбатлантириш, минтақада тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай муҳит яратиш, иш ўринларини кўпайтириш, аҳолининг турмуш даражасини яхшилашдир. Ўзбекистонда туризм саноатининг муваффакияти ушбу соҳани давлат томонидан қай даражада қўллаб-куvvatланишига бевосита боғлиқ. Тошкент вилоятида туризм саноатининг муваффакиятли ривожланиши учун туристик фаолиятнинг барча секторлари фаолиятини мувофиқлаштирадиган кенг қамровли минтақавий ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш керак. Хорижий аналогларга нисбатан минтақавий маҳсулотнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида. Туризм индустрисини минтақавий меҳмондўстлик саноатининг ривожланишида кўпаювчи таъсирини яратишга қодир деб ҳисоблаш керак, айрим корхоналарда эса ижтимоий-иқтисодий ривожланиш режаларининг асоси бўлиши керак.

Кўпгина мамлакатлар, масалан, Бразилия, Эквадор, Боливия, Австралия, АҚШ, Андорра, Аргентина, Гресия, Кения ва Япония туристларни қизиқтириш ва келажакда саёҳатни режалаштиришни рағбатлантириш учун виртуал турлар ва ижтимоий медиа

компаниялари ёрдамида "рақамли туризм"ни ривожлантира бошлади. Шунингдек, сайёҳлик йўналишларини оммалаштириш учун қизиқарли блоглар, веб-сайтлар ва платформалар пайдо бўлди, жумладан соуч тоуисм (диван) туризми - Чили ҳақидаги бир қатор мақолалар ва тўпламлар (озик-овқатдан тортиб мамлакат ҳақидаги китобларга ва дастурларга қадар), Аргентина платформалари (360), Пуерто Рико (виртуал саёҳат ва Зоом воситасида), Эквадор (мамлакатни маҳаллий, минтақавий ва глобал миқёсда тарғиб қилиш учун рақамли платформа) кабилар ишга солинган.<sup>5</sup>

Туризм соҳасида янги ечимлар ва бизнес моделларини рағбатлантириш учун бир қатор мамлакатларда туризм акселераторлари ва инновацион марказлар яратилмоқда. Хусусан, Европа Иттифоқида рақамли инновацион марказлар шаклланмоқда. Бундай марказлар компанияларга техник экспертиздан ўтиш имкониятини яратади ва уларга сармоя киритишдан олдин турли хил инновацион технологияларни синаб кўришга имкон беради. Рақамли инновацион марказлар, шунингдек, муваффақиятли рақамли трансформатсия учун зарур бўлган консалтинг хизматларини, ўқитиш ва кўнгилмаларни ривожлантиришни таъминлайди.

Австралия, Бразилия, Сингапур, Кариб денгизи мамлакатлари, Янги Зеландия, Эквадор, Чили, Аргентина ва Филиппин янги, трансформатсиялашган туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш, кичик ва ўрта бизнес ва туризм соҳасида ишлайдиган одамларга инқироздан чиқиб олиш учун ёрдам бериш мақсадида масофавий ўқитиш курслари ташкил этилди. АҚШда зарар кўрган туристик компаниялар, хусусан меҳмонхона бизнеси вакилларига тезда иш топишга имкон берадиган платформа яратилди. Таиланд, Филиппин, Колумбия ва Белгия пандемиядан зарар кўрган маҳаллий ишлаб чиқарувчиларга тезлик билан ўз бизнесини тиклашга имкон берадиган платформалар яратдилар.<sup>6</sup>

Ўзбекистон туризм соҳасида ҳа бу борада жиддий ижобий ўзгаришлар рўй бермоқда. Бир қатор мамлакатлар фуқаролари учун визаларни бекор қилиш, меҳмонхоналар қуриш ва янги йўналишларни ривожлантириш билан биргаликда мамлакатимизга келган саёҳатчилар учун қулайлик яратувчи инновацион ечимларни жорий этишга ҳам катта эътибор қаратилмоқда.

Рақамли технологияларни жорий этиш соҳа рақобатбардошлигини оширишда, Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти билан потенциал сайёҳларни таништиришда муҳим аҳамият касб этади. Туризм соҳасида рақамли технологияларни қўллашда онлайн хизматлари алоҳида ўрин тутади. Одатда туризм соҳасида қўйидаги онлайн хизматлари кенг тарқалган:

- авиа, темир йўл, автобус ва автомобил маршрутлари бўйича билетларни онлайн усулда заказ қилиш ва сотиб олиш;

- туризм бўйича онлайн маслаҳат бериш хизматлари;

- автомобилларни онлайн ижарага бериш хизмати;

- саёҳатларга, маҳсус турларга ва кўргазмаларга заказлар бериш ва уларни сотиб олиш бўйича хизматлар;

- билетларнинг, турларнинг ва турли хилдаги саёҳатларнинг калькулятсиясини электрон усулда тақдим қилишнинг онлайн сервислари;

- онлайн усулда меҳмонхоналарни заказ қилиш хизматлари;

- шаҳарлар, музейлар ва кўргазмалараг виртуал саёҳатлар уюштириш сервислари ва бошқалар.

<sup>5</sup> Калитвинцева М.В. Инновационная деятельность в туризме: понятийный аппарат и особенности развития//Российское предпринимательство. 2011.№10 – 152-159 с.

<sup>6</sup> <https://vc.ru/flood/85973-cifrovaya-transformaciya-v-turizme-trendy-2020/> мурожаат санаси 01.05.2024

Рақамли кўникмалар туризм сектори учун кадрлар тайёрлаш тизимида ҳам касбий маҳоратнинг ажralмас қисмига айланиши зарур. Рақамли иқтисодиётда илғор технологик лойиҳаларни амалга ошириш қатор қатъий, мослашувчан ва маҳсус рақамли ваколатларга эга мутахассисларга талаб шаклланади.<sup>7</sup> Шу сабабли ҳам туризм соҳасига кадрларни тайёрлашда қуидаги талабларга алоҳида эътибор бериш зарур:

- ўз соҳасини чуқур англаш, шунингдек, ёндош соҳаларда ҳам билим ва тажрибага эга бўлиш;
- янги технологияларни қўллаш билан боғлиқ имкониятлар ва хатарларни тушуниш;
- лойиҳани бошқариш усулларига эгалик қилиш;
- "рақамли эпчилик";
- катта маълумотлар ва визуализатсия воситалари билан ишлаш кўникмаларига эга бўлиш;
- киберхавфсизлик асосларини тушуниш;
- маълумотлар базалари билан ишлаш қобилияtlари;
- тизимли фикрлаш;
- ҳиссий интеллект;
- жамоавий иш;
- узлуксиз ўрганиш қобилияти;
- ноаниклик шароитида мослашиш ва ишлаш.

Иқтисодиётни рақамлаштириш туризм соҳаси учун учун янги имкониятлар ва истиқболларни очади. Рақамли технологиялардан фойдаланиш туризмга харажатларни камайтириш, компаниялар самарадорлиги ва рақобатбардошлигини ошириш, рақамли товар ва хизматлар бозорида ўз ўрнини эгаллаш учун янги турдаги туристик маҳсулотларни чиқариш имконини беради. Шу билан бирга инвестицияларни излаш, туристик фаолият субъектларининг рақамли трансформатсия шароитида муваффақиятли ҳаракат қилиш имконини берувчи янги ваколатларини шакллантириш билан боғлиқ янги муаммолар ҳам вужудга келади. Бу соҳада туристик фаолият билан шуғулланувчи хусусий тадбиркорларни давлат томонидан қўллаб қувватлаш тизимини шакллантириш зарур.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5611-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - 2021 yillarda «O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni.
3. COVID-19 and tourism.2020: A ear in review. <https://www.unwto.org/covid-19-and-tourism-2020/> murojaat sanasi 01.05.2022.
4. UNWTO Tourism Recovery Tracker, 2021. <https://www.unwto.org/tourism-data/unwto-tourism-recovery-tracker/> murojaat sanasi 1.05.2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.09.2018 yildagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5544-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/3913188?otherlang=1>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026

<sup>7</sup> <https://review.uz/post/cifrovizaciya-turizma>.

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

7. Индикаторы цифровой экономики: 2021: статистический сборник / Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гохберг и др.; Нас. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: НИУ ВШЭ, 2021. – 380 с.

8. Калитвинцева М.В. Инновационная деятельность в туризме: понятийный аппарат и особенности развития//Российское предпринимательство. 2011.№10 – 152-159 с.

9. <https://vc.ru/flood/85973-cifrovaya-transformaciya-v-turizme-trendy-2020/> murojaat sanasi 01.05.2022.

10. <https://review.uz/post/cifrovizaciya-turizma>.

11. Husanov Ch.K. Turizmda raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari. Sharq mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotga o‘tish tajribasi: imkoniyatlar va muammolar. Respublika ilmiy-amalii anjumani materiallari to‘plami. – Т.: 2021. – 245 b.

# **ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И СОЦИАЛЬНЫЙ ЭФФЕКТ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ТУРИЗМЕ ПО НАПРАВЛЕНИЮ STEM: ПРЕОДОЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ БАРЬЕРОВ И РАСШИРЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ГОРИЗОНТОВ**

**Рустамов Жамшид Эргашевич**

доцент Самаркандинского Института экономики и сервиса, доктор философии по педагогическим наукам (Ph.D)

**Аннотация:** исследование анализирует экономический и социальный эффект участия женщин в туризме в рамках STEM-направлений (наука, технология, инженерия, математика). Участие женщин в STEM-туризме способствует экономическому росту, инновациям и устойчивому развитию отрасли. Преодоление гендерных барьеров и создание инклюзивной рабочей среды открывают перед женщинами новые карьерные возможности и профессиональные горизонты. Рекомендации включают программы обучения и наставничества, поддержку равных возможностей и женского предпринимательства. Исследование подчеркивает важность содействия равенству и инклюзивности для достижения устойчивого развития туризма.

**Ключевые слова:** STEM-туризм, гендерные барьеры, равные возможности, инклюзивная рабочая среда, экономический эффект, социальный эффект, женское участие, профессиональное развитие.

## **I. Введение**

В современной экономике туризм — это динамично развивающаяся отрасль, играющая важную роль в ВВП и создании рабочих мест. В последние десятилетия особое внимание уделяется участию женщин в научно-технических областях (STEM) туризма, которые способствуют инновациям и повышению качества услуг.

Однако участие женщин в STEM остается ниже, чем у мужчин из-за гендерных барьеров, таких как стереотипы и предвзятости. Преодоление этих барьеров и активное вовлечение женщин в STEM-направления туризма может принести значительные экономические и социальные выгоды.

Во-первых, профессиональный рост женщин в STEM повышает их экономическую независимость и укрепляет экономику. Во-вторых, разнообразие взглядов и подходов женщин в STEM способствует устойчивому развитию туризма благодаря инновациям.

Исследование темы "Экономический и социальный эффект участия женщин в туризме по направлению STEM: преодоление гендерных барьеров и расширение профессиональных горизонтов" актуально и важно для продвижения равенства, эффективности и устойчивости отрасли, что способствует общему благополучию.

## **II. Тенденции женского туризма в STEM**

Тенденции женского участия в STEM-направлениях туризма показывают значительные изменения в индустрии, благодаря усилию роли женщин в научно-технических областях. Это положительно влияет на развитие туризма и способствует достижению экономического и социального равенства.

1. Увеличение числа женщин: Наблюдается рост числа женщин в STEM-отраслях туризма, что способствует разнообразию идей и улучшает качество туристических продуктов.

2. Образовательные программы: Специальные программы помогают преодолевать гендерные барьеры и привлекать женщин к карьере в STEM-туризме.

3. Технологические инновации: Женщины в STEM-туризме вносят вклад в разработку новых технологий, таких как виртуальная реальность, ИИ, и автоматизация, улучшая туристический опыт.

4. Устойчивый туризм: Участие женщин способствует развитию экологически ответственных и устойчивых моделей туризма.

5. Статистика и исследования: Возрастает количество исследований о роли женщин в STEM-туризме, что помогает продвигать равные возможности.

6. Популярные направления: Среди популярных направлений выделяются исследования влияния инноваций на туризм, разработка устойчивых маршрутов и создание инклюзивных продуктов.

Женщины вносят значительный вклад в развитие туризма, преодолевая гендерные барьеры и расширяя профессиональные горизонты, что открывает возможности для устойчивого и инновационного роста отрасли, оказывая положительное влияние на общество.

### **III. Влияние женского туризма в STEM на карьерные возможности**

Участие женщин в STEM-направлениях туризма открывает новые карьерные возможности, способствует профессиональному росту и преодолению гендерных барьеров. Влияние женского туризма в STEM на карьеру включает следующие аспекты:

1. Развитие навыков: Работа в STEM-туризме позволяет женщинам развивать междисциплинарные навыки, повышая конкурентоспособность.

2. Профессиональные сети: Участие в STEM-туризме дает возможность создавать профессиональные сети для карьерного роста.

3. Повышение квалификации: Женщины имеют доступ к курсам и тренингам, что помогает расширять профессиональные горизонты.

4. Карьера и бизнес: Женщины получают возможности повышения в должности, смены специализации и запуска собственного бизнеса.

5. Лидерство и наставничество: Женщины в STEM-туризме становятся лидерами и наставниками для других.

6. Разнообразие и инклюзивность: Работа в STEM-туризме повышает осведомленность о важности разнообразия и инклюзивности.

В целом, участие женщин в STEM-туризме способствует профессиональному росту и развитию устойчивой, инновационной отрасли туризма.

### **IV. Преодоление гендерных стереотипов в STEM**

Женщины в STEM-туризме сталкиваются с гендерными стереотипами, которые могут затруднять их карьерный рост. Преодоление этих стереотипов важно для повышения участия женщин в STEM-туризме и обеспечения прогресса отрасли. Вот некоторые распространенные стереотипы:

1. Сомнения в компетенциях: Женщин часто недооценивают в их технических и научных навыках, что ограничивает их возможности.

2. Недостаток ролевых моделей: Отсутствие женских наставников и ролевых моделей затрудняет карьерный рост женщин.

3. Культурные ожидания: Давление культурных норм может противоречить женской карьере в STEM, особенно в отношении семейных ролей.

4. Недостаток гибкости: Нехватка гибкости на рабочем месте усложняет сочетание работы и личной жизни.

5. Ограниченные возможности продвижения: Женщины могут сталкиваться с барьерами при продвижении, такими как предвзятости или предпочтение мужчин.

6. Дискриминация: Женщины могут подвергаться дискриминации или домогательствам, создавая неблагоприятную рабочую среду.

Преодоление этих стереотипов требует усилий со стороны организаций, общества и политики. Поддержка женщин в STEM-туризме поможет развитию инновационной и устойчивой отрасли.

#### **V. Препятствия и возможности для развития женского туризма в STEM**

Женщины в STEM-туризме сталкиваются с препятствиями, которые могут ограничивать их карьерный рост, включая гендерные предубеждения, недостаток ролевых моделей и доступ к образованию, разрыв в оплате труда, дискриминацию, домогательства и нехватку гибкости на рабочем месте. Однако есть возможности для преодоления этих трудностей:

1. Инклюзивная рабочая среда: Внедрение инклюзивных практик и политик может обеспечить равные возможности и поддерживать женщин.

2. Поддержка наставничества: Программа наставничества и продвижение женских ролевых моделей помогут преодолеть трудности.

3. Образовательные программы: Специализированное обучение и тренинги развиваются навыки и знания женщин.

4. Равная оплата: Прозрачные и справедливые политики оплаты труда устраниют разрыв в заработной плате.

5. Обучение по вопросам инклюзивности: Программы обучения помогают преодолевать гендерные стереотипы.

6. Признание достижений: Признание вклада женщин в STEM-туризме стимулирует их карьерный рост.

Преодоление препятствий и использование возможностей в женском STEM-туризме способствует экономическому и социальному прогрессу в отрасли и обеспечению равных возможностей для всех.

#### **VI. Международный опыт**

Международный опыт показывает, что страны предпринимают разнообразные инициативы для продвижения женщин в STEM-туризме, способствуя экономическому и социальному развитию. Вот несколько примеров успешных программ:

1. Финляндия: «Women in Tech»: Программа предлагает образовательные семинары, тренинги и карьерные консультации для женщин в технологиях, стимулируя создание сетей и сотрудничество.

2. Испания: Инновационные центры и кластеры туризма: Привлекают женщин-экспертов из STEM для профессионального развития, обмена опытом и участия в исследовательских проектах.

3. Сингапур: «TechWomen»: Программа предоставляет женщинам доступ к образованию, стажировкам и наставничеству в технологических сферах, помогая им развивать необходимые навыки.

4. Австралия: Инициативы по гендерному равенству: Множество программ обучения и наставничества для женщин, работающих в STEM-туризме.

5. Канада: Поддержка женщин-предпринимателей: Программы предоставляют доступ к финансированию, обучению и консультациям для женщин-предпринимателей в туристической сфере.

6. Швеция: Программы обучения и наставничества: Целостные программы нацелены на создание инклюзивной рабочей среды и преодоление гендерных барьеров.

Такие программы показывают, как целенаправленные усилия помогают преодолевать гендерные барьеры в STEM-туризме, улучшая карьерные возможности для женщин и способствуя инновациям и устойчивому развитию отрасли.

## **VII. Выводы и рекомендации**

Исследование о влиянии участия женщин в STEM-направлениях туризма выявляет положительные эффекты для отрасли и экономики. Ключевые выводы:

1. Экономический рост и инновации: Вовлечение женщин в STEM-туризме повышает конкурентоспособность и способствует развитию инноваций.

2. Устойчивое развитие: Женщины в STEM-туризме склонны к применению экологичных и этичных практик.

3. Преодоление гендерных барьеров: Преодоление барьеров создает равные возможности и улучшает условия труда.

4. Разнообразие и инклюзивность: Вовлечение женщин способствует более сбалансированным решениям.

5. Личное и профессиональное развитие: Женщины получают новые карьерные и личные возможности.

6. Образование и наставничество: Поддержка обучения и наставничества помогает преодолеть барьеры.

Рекомендации:

- Программы поддержки: Обучение и наставничество для женщин в STEM-туризме.

- Равные возможности: Политика равных возможностей, справедливой оплаты и продвижения.

- Инклюзивная рабочая среда: Без дискриминации и предвзятости.

- Баланс работы и жизни: Гибкие графики для балансировки обязанностей.

- Исследования и статистика: Сбор данных для улучшения условий и отслеживания прогресса.

- Поддержка женского предпринимательства: Предоставление ресурсов для женщин в STEM-туризме.

Эти рекомендации помогут преодолеть гендерные барьеры, улучшить условия труда и карьерные возможности женщин в STEM-туризме, а также развить более инновационную и устойчивую туристическую отрасль.

## **VIII. Заключение**

13. Women in Hospitality 2023 Sixth Annual Report Benchmarking Women in Hotel Industry Leadership, <https://s3.amazonaws.com/edu.psu.libraries.scholarsphere-prod/store/27a982e954aa441cc05b02f34d471a7e.pdf?response-content>
14. <https://unwto.org>

# O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANI JORIY QILISHNING AHAMIYATI

## THE IMPORTANCE OF INTRODUCING FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM IN UZBEKISTAN

Abduraimova Nilufar Ulug'bek qizi  
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti magistranti

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish masalalari keng yoritib berilgan, shu bilan birga, maqolada O'zbekistondagi mavjud ekoturistik zonalar tahlili va bugungi kunda ekoturistik zonalarni rivojlantirishda yechimi topilishi zarur bo'lgan muammolar to'g'risida namunalar keltirilgan. Mamlakatimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun ma'lum bir tizimni shakllantirish zarurligi, uning barcha zaruriy resurslar va ta'riflab bo'lmaydigan go'zal tabiatga boyligini inobatga olgan holda yurtimizga mazkur sohada rivojlangan davlatlar tajribasini joriy etish usullari bo'yicha misolar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** ekologiya, iqtisodiy rivojlanish, hududlarning ekologik tahlili, ekologik turizm, rekreatsiya zonasasi.

**Annotation.** *This article discusses the development of eco-tourism in Uzbekistan, as well as, provides the analysis of existing ecotourism zones in Uzbekistan and examples of problems that need to be solved in the development of ecotourism zones today. Examples of the need to form a certain system for the further development of this field in our country, taking into account all the necessary resources and indescribable beauty of nature, how to introduce the experience of developed countries in this field to our country.*

**Key words:** ecology, economic development, ecological analysis of regions, ecological tourism, recreation zone.

**Kirish.** Ayni damda dunyo miqiyosida, turizm sohasida rivojlanib kelayotgan yonalishlar ichida ekologik turizm dunyo boylab ommalashayotgan yonalishlardan biridir. Xalqaro maqomdag'i tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga ko'payib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yarattdi. Mazkur farmonda:

"Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan bирgalikda turizmnинг boshqa salohiyatlari turlarini, xususan, ekologik turizm, ichki, kirish va chigish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chigish va amalga oshirish" belgilangan.

Bu farmon mamlakatimizda turizmning barcha turlarini bir tekis rivojlantirish masalalarini tatbiq qilishga, turizmni hududiy va mintagaviy rivojlantirish uchun asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan Farmonda ekologik turizmni rivojlantirish alohida ta'kidlanganligi ham, ekologik turizmni jadal rivojlantirishning jiddiy muammolarini aniqlashimiz va bu muammolarning yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-amaliy kuchaytirishimizning vaqt keldi[1].

**Tadqiqot gipotezasi.** Ushbu maqolada, biz hozirgi kunda mamlakatimizda bo'lib otayotgan o'zgarishlardan kelib chiqib va ekologik turizmga bolayotgan e'tiborga yarasha taqdijot o'tkazdir.

Aslida analitik sintezdan kelib chiqib, hozirgi kunda O'zbekistonda ekologik turizmni rivoji jadal ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Zero, O'zbekiston nafaqat YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan arxitektura yodgorliklari, qadimiy shaharlari bilan mashhur bo'lsada, uning hayratlanarli nabotot va hayvonot olami, go'zal tog'lari, g'orlari, cho'llari, shaffof toza ko'llari, daryolar va sharsharalari ham har bir kishini o'ziga maftun etadi.

O'tkazilgan tadqiqotimizdan kelib chiqib, sintez, tahlil va taqqoslash natijasida shu ma'lum bo'ldiki, ekologik turizmni rivojlantirishda xorij tajribasi katta ahamiyatga egadir. Aynida, chet el mamlakatlari bizning mamlakat kabi boy tarixga ega bo'lsada, ammo bizning mamlakat kabi boy madaniyat va go'zal tabiat bilan rag'batlantirilmagan. Bu bizning dunyo miqyosidagi ekologik turizmni rivojidagi shaxdam qadamlarimizdandir.

**Taqdiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada, ekologik turizmni rivojlanishining nazariy asoslari yoritishda sintez va tahlil, induksiya va deduksiya, va taqqoslash uslubidan foydalanildi. Maqolaning amaliy va tahliliy qismida ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanilgan. Tahlilar, ekologik turizm yonalishini yanada jadal rivojlanishi uchun analitik usullardan foydalanib, tahlil qilindi.

Yig'ilgan ma'lumotlar asosida mavzuni yoritib berishga va ochib berishga xarakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi. Mavzuni organish jarayonida umumiylar holat shuningdek chet el tajribasiga ega davlatlar aro tajriba, yani taqoslash va maxsus yondashuvlar, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'lanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** G'arb va Sharqning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi aql bovar qilmaydigan darajada ortib bormoqda, albatta bunga sabab bizning yurta bo'lib o'tayotgan progressiv xarakatlar strategiyasidir. O'zbekistonda ekologik turizmiga bo'lган ahamiyat unchalar ham ko'п bo'lmaseda, turizmning bu turi ko'pchilikni bizdagi urf-odatlar va turmush tarziga befarq goldirmaydi.

Ekologik turizm - turizmning eng jozibali yonalishlaridan biridir. Ekoturizm tushunchasi bizning kundalik hayotimizga nisbatan yaqinda kirib keldi. Bu dam olishning o'ziga xos turi bo'lib, unda sayyoohlar yovvoyi tabiat joylariga boradilar, o'zlarining asl ko'rinishida qolishga muvaffaq bo'lgan hududlar bo'ylab sayohat qiladilar, tabiiy yodgorliklarni ziyorat qiladilar va hokazo. Ekologik turistning asosiy maqsadi tabiiy jarayonlarga jiddiy aralashmaslik va ularga zarar yetkazmaslik bilan birga atrof-muhitni bilish, u bilan iloji boricha yaqinroq birlashishdir.

**Xulosa qilib aytganda,** turli mamlakatlarda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajriba ekoturizm siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda mamlakatning o'ziga xosligi va umumiylar yondashuvlari, xalqaro tavsiyalar va xalqaro tavsiyalar bilan uyg'unlashganligi va turizmning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishidan dalolat beradi. Turli mamlakatlар o'zlarining milliy holatlari va ustuvorliklariga mos keladigan turli yondashuvlar, konsepsiylar, modellar va vositalarni ishlab chiqmoqdalar. Barqaror rivojlanishning global konsepsiysi tamoyillariga mos keladigan turizmning "yaxshiroq shakli"ga erishish imkoniyati/imkonsizligi haqidagi davom etayotgan bahs-munozaralar doirasida turli mamlakatlardan olingan aniq misollar ekoturizm barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qanday hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatib beradi.

## **FOYDANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 02.12.2016 yildagi PF-4861-sonli Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Balmford A., Green J.M.H., Anderson M., Beresford J., Huang C., Naidoo R., et al. Walk on the Wild Side: Estimating the Global Magnitude of Visits to Protected Areas // PLoS Biol. 2015. Vol. 13 (2). P. 1– 6.
2. Ecotourism Pilot Project: Mantanani islands // Brunei Darussalam-Indonesia-Malaysia-Philippines East ASEAN Growth Area (BIMP-EAGA) Vision 2025. Manila: Asian Development Bank, 2017. 45 p
3. Loginova N. Yu., Kostovarova V. V., Chudaykina G. M. Rossiya va Skandinaviya mamlakatlarida ekologik turizm // Rossiyada va chet elda xizmat. 2016. T. 10. No 2 (63). 227–238-betlar.
4. National Trails System [electron resurs] // National Park Service. – URL: <https://www.nps.gov/subjects/nationaltrailssystem/index.htm> (murojaat sanasi: 15.02.2019)
5. R. Hayitboyev – «Ekologik turizm»// O‘quv qo‘llanma. «Barkamol fayz media» Toshkent-2018
6. Rossiya Federatsiyasida ekoturizmning eng yaxshi amaliyotlari. M.: REU im. G. V. Plexanova, 2018. 168 b.
7. The Canadian Ecotourism Market: Special Report No 15. Madrid: UNWTO, 2002. 134 p.
8. Tourism in the Green Economy: background Report. Madrid: Published by the World Tourism Organization (UNWTO) and the United Nations Environment Programme (UNEP), 2012. 156 p.
9. Compendium of Best Practices and Recommendations for Ecotourism in Asia and the Pacific. Madrid: UNWTO, 2012. 128 p.
10. Hamidov O. H va Norchayev A. N – «Ekoturizm»// Darslik, Toshkent-2011.
11. Ecotourism in Uzbekistan: prospects and opportunitiyes. July 18, 2018. Available at: <https://uzbekistan.lv/en/ecotourism-in-uzbekistan-prospects-and-opportunitiyes>.

# **ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В ТУРИЗМЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**Ибрагимова Раиса Григорьевна,**

**Ашуррова Замира Ослоновна**

**PhD, Самаркандский Международный**

**Технологический Университет**

**Аннотация:** В связи с интенсивным развитием сектора туризма в Узбекистане усиливается роль вовлечения женщин в туристический бизнес. Но в отрасли еще остаются нерешенные проблемы. В данной статье поднимаются проблемы о трансформации бизнес-моделей для сектора туризма посредством инноваций и цифровизации и усиления позиций женщин-предпринимателей в этой трансформации.

**Аннотация:** O‘zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishi munosabati bilan ayollarni turizm biznesiga jalb etishning roli ortib bormoqda. Biroq sohada hali ham hal etilmagan muammolar mavjud. Ushbu maqolada innovatsiyalar va raqamlashtirish orqali turizm sektori uchun biznes modellarni o‘zgartirish va ushbu transformatsiyada tadbirkor ayollarning mavqeini mustahkamlash masalalari ko‘tariladi.

**Abstract:** Due to the intensive development of the tourism sector in Uzbekistan, the role of women's involvement in the tourism business is increasing. However, there are still unresolved problems in the sector. This article raises issues about the transformation of business models for the tourism sector through innovation and digitalization and strengthening the position of women entrepreneurs in this transformation.

**Ключевые слова:** Женщины-предприниматели, цифровизация, информационные технологии, туризм, «Туристическая махалля».

За последние десятилетия Узбекистан кардинально изменил стратегию развития и интегрирования в мировое сообщество. Одним из ключевых стратегических направлений развития национальной экономики являются изменения в сфере туризма, которые могут способствовать быстрому прогрессу различных регионов. Многое сделано в сфере туризма, разработаны реформы, направленные на создание необходимой законодательной базы для улучшения функциональности туризма, улучшения сервиса и гостеприимства.

Реформы коснулись изменений в сфере туризма, так, в 2016-2020 годах произошло значительное увеличение количества иностранных туристов, посетивших Узбекистан. Для сравнения, если в 2016 году страну посетило 2 миллиона иностранных туристов, в 2020 году их количество достигло 6,7 миллиона, в 2024 году планируется принять 7 млн. туристов. Узбекистан провел ряд международных ивентов высшего звена таких как ШОС в 2022 году, 25 юбилейная сессия генеральной ассамблеи ВТО ООН в 2023 году, и ряд других крупномасштабных мероприятий мирового значения.

Результаты реформ, проводимых в сфере туризма в Узбекистане, свидетельствуют о большом потенциале отрасли, особое внимание уделяется устойчивому развитию туризма, увеличению количества объектов инфраструктуры, развитию потенциала внутреннего туризма и вовлечению женщин в туристический бизнес.

В Узбекистане доля женщин в предпринимательстве составляет 25 % от общего числа субъектов малого бизнеса. Одной из приоритетных задач, стоящих перед этим сектором, является доведение доли соотечественниц среди субъектов предпринимательства до 40 процентов.

Концепция развития сферы туризма в Республике Узбекистан в 2019-2025 годах расширяет перспективы использования туристического потенциала страны, увеличению количества трудовых мест, привлекательности дестинации, роста экономики в целом.

Увеличивается строительство и ввод в эксплуатацию гостиниц, общежитий и гостевых домов, создание центров и кластеров женских ремесел в каждой области, совершенствование деятельности центров женского предпринимательства, обучение и вовлечение женщин в туристический бизнес, предоставление льгот и помощи в реализации продукции, производимой женщинами в области золотошвейного и швейного дела, шелкоткачества и т.д. По итогам 2023 года в стране насчитывалось более пяти тысяч гостиниц, отелей и прочих средств размещения туристов, где в управлении туристической отраслью и гостиничным бизнесом отведена женщинам предпринимателям.

Так в Хиве в отельном бизнесе, который основали работают успешные женщины предприниматели, руководители и владелицы отелей Рахманова Диларам, Джуманиязова Сайера, Ничязметова Сурайе, Ахмедова Насиба которые разработали новый подход к привлечению туристов. Генеральный директор отеля «Фарагон Хива» Мирзаева Лола добилась в своем отеле энергоэффективности и автоматизации и сохранения водных ресурсов.

Важнейшей тенденцией становится вовлечение женщин в сферу высоких технологий в туризме. В этих целях в Узбекистане открыт ИТ-центр по повышению квалификации женщин.

В Самарканде можно привести пример успешных леди бизнес в туризме, например это руководитель отеля «Ориент Стар» Артыкова Саодат, которая внедряет в отельный бизнес новые стандарты и информационные технологии. Сайдова Назима – владелица отеля «Дарвоза Самарканда», работает над внедрением новых технологий и правильном применении их в отеле.

Последний год в республике проводится большая работа в регионах по созданию реестра населенных пунктов со статусом «Туристическая махалля», «Туристическая зона» и разработка для этого электронной платформы.

Цифровизация операционного менеджмента в вышеуказанных бизнес-моделях существенно повысила эффективность оказания туристических услуг, обслуживания большего числа гостей и способствует устойчивому развитию. Однако в отрасли существует множество проблем, требующих решения. Низкая осведомленность женщин-предпринимателей о государственной поддержке туризма в законодательной и других сферах, низкое качество информационной инфраструктуры, низкий уровень грамотности в применении ИТ-технологий и искусственного интеллекта, являются одними из факторов, снижающих вовлеченность женщин в развитие туризма и гостеприимства в Узбекистане.

В заключение следует отметить, что туристический бизнес Узбекистана нуждается в трансформации своих бизнес-моделей посредством инноваций и цифровизации. Необходимо развивать ИТ грамотность женщин-предпринимателей, разрабатывать удобные и безопасные приложения для различных видов туризма, вовлекать женщин в проект «Туристическая махалля», потенциал которых в настоящее время только начинает реализовываться.

## Библиография

Развитие туризма в Узбекистане: обзор туротрасли за 2016-2020 гг.

<https://review.uz/post/razvitie-turizma-v-uzbekistane-obzor-turotrasli-za-2016-2020-gg>

Первая в Узбекистане «туристическая махалля» появилась в Самарканде

<https://www.spot.uz/ru/2023/09/07/tourist-mahalla/>

USAID Celebrates Women's Empowerment in Uzbekistan's IT Sector

<https://uz.usembassy.gov/usaid-celebrates-women-empowerment/>

# **BIZNES VA IT SOHALARIDA AYOLLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA ULARNING FAOLIYATI**

**Safarova Marjona Bahodirovna**

O'zbekiston Xalqaro

Islom Akademiyasi talabasi

Vaqt o'tgan sari, texnologiyalar kundan-kunga rivojlanmoqda va bu bizga ko'p sohalarda ish faoliyatimizning yaxshilanishiga, samaradorlik, unumdarlikning oshishiga, osonlashishiga va tezlashishiga imkon bermoqda. Texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, ushbu asrda yaratilayotgan va rivoj topayotgan innovatsiyalardan foydalana olishimiz kerak. Shuningdek, bilamizki hozirda Xitoy, AQSH, Yaponiya, Korea kabi davlatlar o'z biznes va iqtisodiyoti bilan ilg'or davlat qatorida kelmoqda. Bugungi kunda biznes va IT sohalarini rivojlantirish orqali ilg'or, rivojlanayotgan davlatlar qatoriga mamlakatimizda imkoniyatlar mavjud.

Ma'lumki, yurtboshimiz Sh.M.Mirzoyoyev tashabbuslari bilan ayollarning xaq-huquqlarini himoya qilish, ularni ish bilan ta'minlash borasida juda ko'p islohotlar olib borilmoqda. Bu islohatlarning natijasi sifatida so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, ayollar uchun ham ko'plab ish o'rinnari yaratilganligi, ish bilan ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Shu sababdan endilikda ular o'zlarining mustaqil tadbirkorlik, biznes ish faoliyatlarini olib borishlari mumkin bo'ladi. 400 mingdan ko'pi ish bilan ta'minlandi. Jahon bankining yaqinda e'lon qilingan indeksida O'zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023 yil 1 maydan kuchga yangi tahririga binoan endilikda ayollar qanday holatda bo'lmasin ishlay olishlari mumkin. Oila qurbanmi, farzandlari bormi, homiladormi endilikda bu masalalarga asoslanib ularni ishdan cheklay olishmasligi belgilab qo'yildi. Hozirgi kunda oliyohlarda ta'lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pini qizlar tashkil etmoqda. Qizlarning ta'lim olishlarini yengillashtirish uchun joriy etilgan "Ta'lim kredit" loyihasi hozirda ko'plab xotin-qizlarning muammosiz bilim olishlariga o'zining katta hissasini qo'shamoqda. DTM 2023-yil imtihoni natijalariga ko'ra barcha viloyatlar kesimida yuqori ko'rsatgichni ko'rsatmoqda. Bu shuni anglatadiki, endilikda xotin-qizlar ta'limiga e'tibor kuchaytirilgan va bu albatta ijobjiy natija. So'nggi yetti yilda 5 247 nafar ayollar ilmiy darajalar olgan. Xotin-qizlar orasida bakalavr, Phd, doktorantlik darajalariga ega bo'lmoqdalar, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizini qizlar tashkil etadi. Aynan IT sohasida bilimlarni egallashga yordam berish uchun mo'ljallangan ushbu loyiha orqali juda ko'p qizlar bilmlarga ega bo'ldilar va ular 47 foizni tashkil etgani bu juda quvonarli holat. (Barcha statistik ma'lumotlar 11.03.2024 gi ma'lumotlarga ko'ra berilgan). [1]

Hozirda juda ko'p tashkilotlarda masofaviy ishslash faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Bu esa ayollarga juda ko'p qulayliklar yaratadi, ya'ni ishga bormasdan turib uyda ishslash va boshqa o'zlarining uy vazifalarini ham bermalol bajara olishlari mumkin. Biznesni turli ijtimoiy tarmoqlar: You tube, instagram, telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali ham amalga oshirish mumkin. Bu esa hozirgi texnologiyalar va IT rivojlanish bilan bog 'liq jarayon hisoblanadi. Hozirgi zamон texnologiyalari orqali istagan kasb-hunarni osonlik bilan o'rganish va o'rganganlaringiz yordamida daromad qilish mumkin. tillarni o'tganish uchun misol tariqasida "Duolingo" kabi, dasturlash tillarini o'rganish uchun "Solearn" programmalari mavjud undan tashqari son-sanoqsiz saytlar va dasturlar

mavjud, ular tushunishga juda oson qiyin bo‘lmagan kunlik 15-20 minut vaqt sarflab ham sekin asta o‘rganish mumkin. Savdo-sotiqning oson tomonlari ko‘p, hozirda masofadan turib mahsulot ayrboshlash ancha qulay. O‘zbekistonda turib chet davlat mahsulotlarini sotib olish va sotishning ham imkonli bor. Hozirga agar ayollar til bilsalar ishtalgan chet ellik psixolog kurslarini sotib olishi, uni o‘rganib, O‘zbekistonda kurslar ochib ish faoliyati yuritishi mumkin. Sanoat, iqtisod, tibbiyot sohalarini chet el kurslarini masofadan o‘qib o‘rganib ushbu bilimlar bilan o‘zlarining orzusidagi ishlarga joylashib ishlashlari mumkin bo‘ladi, faqat buning uchun ingliz, rus tillarini yoki boshqa qaysidir tillarni o‘rgangan bo‘lsa ancha oson bo‘ladi. Til bilmaydigan xotin-qizlar ham o‘zbek kurslarini tamomlab hozirda ko‘pchiliklari o‘z ish faoliyatlarini yo‘lga qo‘ygan. Aynan hozirda IT o‘quv kurslarida, tashkilot, kompaniyalarida yoki shu sohada ilm oluvchi qizlar, ayollar soni ham sezilarli darajada oshgan. **Yuliya Poslavskaya**, “Innotech Group” kompaniyasining marketing bo‘yicha direktori, IT bo‘yicha ekspert: “Bugungi kunda biznesni, iqtisodiyotni umuman har qanday sohani raqamlashtirishda IT-sohasiga katta ehtiyoj bor, demakki, bu kasb nafaqat muhim, balki istiqbolli ekanidan dalolat beradi. Oldingizga maqsad qo‘yib, ular tomon harakatdan to‘xtamang. IT erkaklarga xos deb o‘ylamang. U erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham birdek ochiq.” [2]

Ayollar ham texnologiyalardan foydalanib olmashumul ixtiolar yaratilmoqdalarki, ularni tilga olib o‘tish joizdir. Doktor Mariya Telkes va uning hamkasbi Eleanor Reymond quyosh batareyalari ishlab chiqish sohasida yangilik yaratuvchilar bo‘ldi. Olima va aktrisa Xedi Lamarr AQSh floti uchun radioaloqa sohasida innovatsiya yaratdi, u Bluetooth va Wi-Fi’ga o‘xshash bo‘lgan texnologiyalar uchun asos bo‘ldi. Jessi Kartrayt maishiy texnikada ko‘plab foydali texnologiyalarni o‘ylab topgan, biroq ular orasida eng ahamiyatlisi mikroto‘lqinli pechdir. Syuzen Keyr — Masintosh kompyuterlaridagi interfeysning afsonaviy elementlarini yaratgan grafik dizayner. Amerikalik muhandis Meri Engl Pennington 1907-yilda oziq-ovqat yetkazib berish uchun ko‘chma refrijerator qurilmalarini ishlab chiqdi. 1914-yilda esa yana bir ixtirochi ayol Florens Paspart uy sovitgichi uchun patent oldi. [3] Mehnat va izlanishlar natijasi albatta yuqori bo‘ladi. Faqat chet ellarda emas balki o‘zimizning o‘zbek tadbirkor, psixolog, biznesmen ayollarimiz ham bor masalan: Tojimirzayeva Gulbahor Namangan metalurgiya zavodi asoschisi, Shohida Ibrogimova biznes treyner, Muxtasar Nazarova psixolog, Maftuna Arabbayevna, Dildora Otajonova agro sanoati bo‘yicha [4], Omonboyeva Merey biznes treyner. Qaysi bir sohada bo‘lmasin ayollar uchun yetarli sharoitlar, imkoniyatlar bor, shunchaki ulardan foydalanish kerak. Vatanimizni ham iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jihatlardan ham rivojlantirishga o‘zimizning yuksak hissamizni qo‘sha olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Biznes va IT sohasi ham eng rivojlanayotgan va eng muhim sohalardir. Negaki hozirgi hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz, shuningdek har bir davlatning asosiy daromadi biznes orqali keladi, shuning uchun ham bu ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda ma’lumotlar, axborotlar asrida yashayotganimiz uchun, raqobatdosh kompaniyalar soni oshib borayotganligi uchun bu sohada xotin-qizlarga ham talab kuchli. Zero, uydan turib ishlash imkoniyatlari, o‘qish imkoniyatlari mavjud, ilg‘or, ilmlı ayollarning farzandlari ham huddi shunday bo‘ladi, yurtimiz kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘shishadi. Shunday ekan, har birimiz izlanishlar olib boramiz, umrimizni mazmunli, jamiyatga, davlatimizga foyda keltiradigan ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tkazamiz.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. <https://parliament.gov.uz/news/ayollari-ezoz-topgan-yurt>
2. <https://www.spot.uz/oz/2022/11/17/yuliya-poslavskaya/>
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/ayollar-tomonidan-yuqori-texnologiyalar-sohasida-qilingan-6-ta-ixtiro>
4. <https://youtu.be/4AOVODS0kyk>

# TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN INNOVATSION VA TEXNOLOGIK YECHIMLARNI TAKLIF QILISHDA AYOLLARNING O'RNI

Salimova Maxbuba  
Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot ishida turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion va texnologik yechimlarni taklif qilish hamda sohadagi ayollarning o'rni bo'yicha fikrlar keltirib o'tilgan. Turizm sohasida faoliyat olib boradigan xotin-qizlarning asosiy yo'nalishlari va ularning vazifalari hamda turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion va texnologik imkoniyatlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Innovatsiya, turizm, texnologiya, VR, AR, kiosk, eko tizimlar, gid.

So'nggi yillarda turizm sanoatida innovatsiya hamda texnologik yutuqlar tufayli ijobjiy o'zgarishlarga erishilди. Biznes tomonidan yondashilsa, turli innovatsion loyihalar va texnologiyalarni turizmda qo'llash har bir tomon uchun manfaatli hisoblanadi. Sayyoohlар yangi texnologiyalardan foydalanib, tashrif buyurgan mamlakat xizmatlaridan mammun bo'lsa, boshqa tomondan xizmat ko'rsatuvchi korxona va firmalar iqtisodiy tomonlama foydaga erishadi hamda mamlakatda esa sayyoohlар oqimi o'sishi mumkin bo'ladi. Ayni turizm sohasi bo'yicha innovatsion va texnologik yechimlar ishlab chiqishda iqtidorli va izlanuvchan ayollarning roli muhim sanaladi. Ushbu maqola xotin-qizlarning sayyoohlilik sohasidagi ilg'or, innovatsion ishlarini, ularning turizm sohasi rivojiga ta'sirini o'rganadi. Ayollar azaldan turizm sohasi rivojida asosiy o'r'in egallab, sohaning turli jahbalarida o'z mahorati, iqtidori va tajribasini qo'shib kelmoqda. Quyida ayollar faoliyat olib borayotgan yo'nalishlarni ko'rishingiz mumkin:



Turizm sohasini mehmonxona, hostel va restoranlar tizimlarisiz tasavvur qilish qiyin. Mexmonxona va restoran xodimlari o'zlariga ko'proq mijozlarni jalb qilish uchun mehmonxona va restoranlarda turli noodatiy va innovatsion yechimlar topish zarurdir. Bundan tashqari sayyoohlар bilan muloqot qilishda faqatgina til bilish muhim bo'lib qolmasdan, xushmuomalalik va do'stona muloqot asosiy o'r'in tutadi. Ba'zida sayyoohlар bilan bog'liq muammo va tushunmovchiliklar bo'lganida bunday noqulay vaziyatdan erkaklarga nisbatan ayol xodimlar mohirlik bilan chiqib ketadi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi faol ayollar sayyoohlarga o'z oilalarida o'tkaziladigan marosimlarga taklif qilishadi va shu orqali sayyoohlarga o'zi yashab turgan joy madaniyati bilan yaqindan tanishtiradi. Sayyoohlар bilan shunday samimiyyat bilan muomala qilish ularni begona yurtda o'zlarini kulay va mammun his qilishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda tarixiy hunarmandchilikka asoslangan san'at namunalariga sayyoohlар tomonidan qiziqish juda katta. Klassik uslubda yaratilgan to'qimachilik, kashtachilik, tasviriy san'at, kulolchilik ishlariga talab yuqori darajada. Ma'lumki, ishlar aksar qismini ayollar yaratadi va bular avloddan avloda meros bo'lib qoladi. Endilikda hunarmand xotin-qizlar kreativ yondashib, qadimiy va zamonaviy san'atni birlashtirgan holda san'at asarlari yaratib, sayyoohlар qiziqishini oshirmoqda.

Sayyohlar ko'proq o'z sayohati davomida sun'iylikdan qochib, tabiiy go'zalliklarni ko'rishni xohlaydi. Shuning uchun mahalliy aholi va atrof muhitga foyda keltiradigan takliflar dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda aynan shunday yo'naliyatlardan olib boruvchi bir qancha bloger va ijtimoiy faol xotin-qizlar soni ko'paymoqda. Urikguli nomi ostida ekobloggerlik bilan shug'ullanuvchi Mutabar Xushvaqtova ham o'zining noodatiy kontentlari bilan keng jamoatchilik e'tiboriga tushgan.

Bugungi kunda xotin-qizlar orasida ko'p tarqalgan kasb hisoblangan gidlik xizmati o'zida ko'p ayol xodimlarni birlashtirmoqda. Vikipediyaning ma'lumotlarga ko'ra Butunjahon xotin-qizlar gidlari va skautlar assotsiatsiyasiga o'n millionga yaqin xotin qizlar a'zo hisoblanadi. Dunyo bo'yicha ayol gidlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Birgina misol Shimoliy Afrikada immersiv sayohatlarni olib borish uchun faqat ayol gidlardan foydalaniadi. Chunki ayollar boshchiligidagi sayohatlar yanada qiziqarli, yorqin va yangicha qarash bilan o'tadi.

Hozirda axborot texnologiyalari birin-ketin barcha sohalarda, jumladan, turizm sohasida keng qo'llanilmoqda Sayyohlar uchun diqqatga sazovor maskanlarni chuqurroq tanishtirishda VR va AR, kiosk texnologiyalari va turli ilovalardan foydalanish eng zamonaviy usullaridan biridir. Bunday texnologiya va axborot tizimlaridan foydalanish sayohat jarayonini yengillashtirishadir va sayyohlarda texnologiyalardan foydalanish madaniyati va tajribasi oshadi. Dasturlash sohasida ishlovchi xotin-qizlar o'zlarining ijodkorliklari va raqamli bilimlaridan foydalangan holda sayohatlar atrofida hayajon va qiziqish tuyg'usini yaratishga qodir, odamlarni yangi yo'naliishlar va tajribalarni kashf etishga undaydilar.

Umumiyligi olib aytganda tashabbuskor va kreativ xotin-qizlar turizm sanoatida innovatsiyalar va texnologiyalarni yaratish hamda qo'llashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xizmat ko'rsatishdan tortib, zamonaviy axborot texnologiyalar sohalarida erishilgan yutuqlarning asosiy qismida xotin-qizlar yetakchilik qilib kelmoqda. Texnologiya va innovatsiyalar rivojlanishda davom etar ekan, turizm sohasida ayollarning o'rni oshib boraveradi.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Salimova M. Automation system for kiosk ordering processes for tourists. International Journal Of Human Computing Studies (IJHCS) (2615-8159/ 2615-1898).

# **START-UP TUSHUNCHASI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TURIZM SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI**

**Raximov Muzaffar Ibragimdjanovich**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
“Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm” kafedrasi stajori

**Numonov Mansurbek Nosirjon o'g'li**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
Yurisprudensiya ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Anontatsiya:** Ushbu maqolada startap tushunchasi, uning biznesdan farqi, turizm sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanib yangi innovatsiyalar, startaplar yaratish haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** startap, biznes, platforma, innovatsiya, turizm.

"Startap" tushunchasi ko'pincha noto'g'ri qo'llaniladi. Kimir buni har qanday yangi biznes deb ataydi, boshqalari startap sifatida yangi Internet-loyihani tushunishadi. Aslida, juda muhim farq bor. Startap-bu har doim takrorlanadigan va kengaytiriladigan biznes modelini qidiradigan tashkilotning vaqtinchalik shakli. G'oya noldan rivojlanmoqda va startapning asosiy maqsadi foyda manbalarini topishdir.

Biznes yoki kompaniya doimiy tashkilotdir. U takrorlanishi mumkin bo'lган kengaytiriladigan biznes modelidan foydalanadi. Shu bilan birga, dastlab pul ishlash usuli va uni amalga oshirish usuli ma'lum. Ma'lum bo'lishicha, asosiy farq shundaki, kompaniyalar tayyor biznes modelidan foydalanadilar va startaplar faqat bittasini qidirmoqdalar. Misol uchun restoran biznesi modelini tahlil qiladigan bo'lsak: mijozni jalb qilish – buyurtma berish-to'lovni qabul qilish. Mijozlarga xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan hech qanday yangilik kutilmaydi. Mumkin bo'lган o'sish mijozlar sonini ko'paytirish va restoranni kengaytirishdan iborat. Taqqoslash uchun biz restoran startapiga, dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biriga aylangan McDonald'sga e'tibor qaratidag bo'lsak, uning biznes modeli turli xil menu va avto'lov xizmatini tarixda ilk bor qo'lladi, keyinchalik biznes modeli o'z-o'ziga xizmat ko'rsatadigan restoranga o'zgartirildi. Bundan tashqari, Menyuda tez ovqatlanish va hamma uchun mavjud bo'lган 15 sentlik burgerlar mavjud edi. 15 yildan so'ng franchayzing bo'yicha birinchi McDonald's ochildi. Yana 11 yil o'tgach, aka-ukalar o'z huquqlarini McDonald's System, Inc.ni tashkil etgan Fred Tyornerga sotishdi. Bugungi kunda kompaniya 100 dan ortiq mamlakatlarda 36000 dan ortiq restoranlarga ega. McDonald's ilgari ishlatilmagan restoran franchayzingining innovatsion g'oyasini topdi. Bu biznes modelini takrorlash imkoniyati bilan biznesni kengaytirishga imkon berdi. Startap ko'pincha texnologiya, ixtiro va texnik innovatsiyalar bilan bog'liq. Aslida, bunday loyiha mutlaqo har qanday faoliyat sohasida tashkil etilishi mumkin (masalan, yuqorida aytib o'tilgan McDonald's). "Startap" nomining o'zi inglizcha "start up" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarjimada "ishga tushirish" degan ma'noni anglatadi va jarayonning boshlanishini anglatadi.

Innovatsiya tadbirkorlikning asosidir va har yili real muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalari rivojlanib borgani sari jamiyatda ko'pchilik ancha vaqtlardan beri o'rgangan narsalar o'zgara boshladi. Koronavirus pandemiyasi esa bu jarayonni tezlashtirib yubordi. Bizning yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadidi. Barcha sohalar kabi turizm ham yangi g'oyalarga muhtoj bo'lib qoldi. Sayyoqlik sanoati pandemiyadan qattiq zarba oldi,

ammo virtual haqiqat (VR) texnologiyasi muqobil yechimni taklif qilishi mumkin edi. VR sayohat tajribalarini taklif qiluvchi startap odamlarga o'z uylaridan yangi yo'nalishlarni o'rganishga yordam beradi. Startap sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlik qilib, haqiqiy dunyo sayohatlarini simulyatsiya qiladigan haqiqiy VR tajribalarini yaratishi mumkin. Imkoniyati cheklangan insonlar o'z uyida turib turli joylarga sayohat qila oladilar. Turizm sohasi uchun yana bir yangi startaplardan biri bu onlayn platformalar bo'ldi. Endi sayohatni onlayn rejalashtirsh imkonи tug'ildi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish turizm sohasi uchun istiqbolli bo'lshi mumkin. Ayniqsa startap loyihalar davlatimiz tomonida qo'llab quvvatlanmoqda. O'zbekistonda turizm jahon bozori talablari bilan rivojlanib bormoqda. Bugun yurtimizga tashrif buyurmoqchi bo'lgan sayyoh internet orqali o'z sayohatini rejalashtirishi, mehmonxona va aviakompaniyalar onlayn xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Mamlakat hududida smartfonlardagi maxsus mobil ilovalar orqali taksi chaqirtirish, ovqat buyurtma qilish, restoranda joy band qilish yoki borayotgan manzillari haqida internetdan ma'lumot olish imkoniyati bor.

Axborot texnologiyalari shu tariqa sayohat industriyasida taraqqiy etishni davom ettiradi. Misol tariqasida quyidagi faktlarni sanab o'tish mumkin: O'rta Osiyo va Kavkazorti mamlakatlaridagi yirik va jadal rivojlanayotgan onlayn agentlik hisoblangan Oriental Express CA O'zbekiston turistik xizmatlarini targ'ib qilishda faollik ko'rsatayapti, yildan yilga OrexCA.com foydalanuvchilari diyorimiz, undagi rang-barang urf-odatlar, turistik manzilgohlar haqida shu manbadan ma'lumot oladi. Qolaversa, O'zbekistonda turoperatorlar va mehmonxonalar o'rtasida internet vositasida axborot almashish servisi – Hotelios joriy qilingan. Mazkur tizim MDH davlatlari orasida muqobili yo'q bo'lgan innovatsion loyiha hisoblanadi. Sug'urta polislarini onlayn olish imkoniyatlarining mamlakatimizda joriy qilingani ham shular jumlasidandir. Biroq, biz O'zbekistonga ko'proq sayyohlar tashrif buyurishiga erishish, bizda mavjud madaniy, tarixiy obidalar va o'ziga xos tabiatga ega manzilgohlarni ommalashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirishimiz kerak. Menimcha, xalqimiz tinchligi va sarhadlarimiz xavfsizligi chora-tadbirlari ko'rilgan holda, yurtimiz mehmonlari, ularning shaharu qishloqlarimizga kelishi uchun iloji boricha qulayliklar yaratilsa, innovatsiyalar yordamida ularning harajatlarini tejash masalalari hal qilinsa, O'zbekistondagi turistik xizmatlar yanada jozibador bo'ladi va ko'proq daromad olib keladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-soni  
“Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2023 yildagi PQ-238-soni «Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2024 yildagi PQ-20-soni O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi

5. <https://www.unisender.com/ru/glossary/chto-takoe-startap/#anchor-1>

6. Shirinova G.X.Turizm faoliyatini rivojlantirshda telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish. JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)  
VOLUME 2, ISSUE 5 (September)

# O'ZBEKISTON TURIZMINI BARQAROR RIVOJLANISHIDA TADBIRKOR AYOLLARNING TASHABBUSKORLIGINI QO'LLAB - QUVVATLASH

Fayyoza Xalimova Nafasovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchisi

[fayozahalimova@gmail.com](mailto:fayozahalimova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mamlakat turizmini barqaror rivojlanishida sohadagi tadbirkorlar faoliyatining o'rni beqiyosdir. Bu sohada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan chora tadbirlar nafaqat turizmni rivojlanishiga balki jamiytdagi xotin – qizlarning shu sohada faollashishiga sabab bo'lmoqda.

**Kalit so'zлari:** Barqaror turizm, tadbirkor ayol, sayyoh, imtiyoz, investitsiya, loyiha.

Keyingi yillarda O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish hamda sohada faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar va mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarga imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo'yicha izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan turizm sohasidagi tizimli ishlar turistlar oqimini oshirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi. Masalan, eng liberal viza rejimlari reytingida O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinni egalladi, Madridda bo'lib o'tgan UNWTOning 24-sessiya doirasida ovoz berishda 2023-yilda nufuzli anjumanni o'tkazish joyi sifatida Samarqand shahri tanlandi va shu yilning oktabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Juhon sayyohlik tashkiloti (YuNVTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi Silk Road Samarkand sayyohlik majmuasi hududida bo'lib o'tdi bu sessiya 140 dan ortiq davlatdan kelgan ishtirokchilarni birlashtirdi, 600 dan ortiq kompaniya vakillari ishtirok etib global investitsiya forumida muhim sarmoyaviy loyihalar muhokama qilindi. Loyer mehmonxonalar, osma yo'llar, sport maydonchalari, tog'-chang'i kurorti, ko'ngilochar markaz, restoranlar va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarini o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda bunday loyihalarni amalga oshishi tadbirkorlarga keng ko'lamdagagi yangi imkoniyatlar yaratilishiga sabab bo'ladi.

*Respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida 2023 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 135-sonli qarori qabul qilindi. Bunga ko'ra 2024-yilning 1-maydan 1-iyuliga qadar tajriba tarzida Turoperatorlarga subsidiya ajratiladi turoperator xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarga chet elliq hamkorlariga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan QQSning 20% miqdoridagi mablag'lar davlat budgetidan subsidiya sifatida qaytariladi.*

*2026-yil 1-maygacha mahalliy turoperatorlarga turizm sohasida joylashirish xizmatlarini ko'rsatuvchi yoki avtomobil transportida yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga bojxona imtiyozi berilishi yoki O'zbekistonning turizm mahsulotini xorijiy turizm bozorlarida targ'ib qilishga joriy yilda 50 mlrd so'm ajratilishi va transport vositalarini xarid qilishga 300 mln so'm yo'naltirilishi tadbirkorlik kolamini kengayishi va qo'shimcha ravishda aholini ish bilan bandlilik*

*darajasiga bevosita ta'sir etadi.*<sup>18</sup>

Bugungi kunda mamlakatimizda ginder tenglikni ilgari surgan holda oiladagi teng huquqlilikni ta'minlash va jamiyatda xotin-qizlarning faollashishi hamda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarida ayollar samarali faoliyat olib borishi uchun davlatimiz tomonidan berilayotgan imtiyozlar va yaratilayotgan qulayliklar tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Ma'lumot o'rnida 2022 yil O'zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar 238 ming 188 tani tashkil etib va bir yilda ularning soni 9,4%ga oshgani hamda jami tadbirkorlarning 41,6%i ayollar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Sohalar bo'yicha o'sish ko'rsatkichi hunarmandchilik 19,3%, chakana savdo 9,2%, maishiy xizmat ko'rsatish 8,3% hamda boshqa faoliyat turlarida 7% kuzatilgan. Hududlar kesimida esa yakka tartibdagi tadbirkorlarning eng ko'p qismi Toshkent shahrida 29 ming 152 ta, Samarqand shahrida 28 ming 618 ta hamda Farg'onada 24 ming 272 tani tashkil etgani va jami tadbirkorlarning 41,6%i ya'ni 99 ming 307 tasi ayollar hissasiga to'g'ri kelishi va besh yil davomida tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan ayollar soni 205 ming nafardan oshdi bu jamiyatda ayollarning faollashuvini ko'zda tutadi.

Mamlakat iqtisodiy hayotida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish maqsadida 2024 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli qarori qabul qilindi.<sup>19</sup> Bunda Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan uch yillik imtiyozli davr bilan yetti yil muddatga yillik 14 foiz stavkada jami 100 million AQSh dollari ekvivalentida, shundan aksionerlik tijorat "Xalq banki"ga 35 million AQSh dollari, "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga 35 million AQSh dollari va "Mikrokreditbank"ATBga 30 million AQSh dollari miqdorida kredit resurslari ajratilishi ko'zda tutilgan.<sup>20</sup>

*"Tadbirkor" ayol deganda maqsad daromad olish bo'lsada o'z mas'uliyatini unutmagan holda oilada so'g'lom muhitni shakllantirish va jamoatchilikka foyda keltiruvchi biron-bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxs tushuniladi.*

Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlanishi bu nafaqat ularni ish bilan bandliligi balki oiladagi teng huquqligli, o'zining daromad manbayiga egaligi va salohiyati, imkoniyati etadigan sohalarda faoliyat olib borishidir. Shu jumladan Turizm sohasida ham ayollarning etakchiligi ya'ni bu sohadagi tirli xil tadbirkorlik bilan shugullanishi uchun mamlakatimiz resursi va imkoniyati yetarli darajada mavjudligi, boshqa sohalarga qaraganda daromad manbaini yuqoriligidini ular his qilishi va sohada samarali faoliyat olib borishi lozim.

2023 yil mobaynida yurtimizga 6 million 600 ming nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davrida 5 million 200 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, 23 foizga oshdi.

Yil	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sayyoohlар soni (million)	2,7	5,3	6,7	1,5	1,9	5,2	6,6

<sup>18</sup> 2023 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 135-sonli qarori

<sup>19</sup><https://www.bss.uz/news/5910-2024-yil>

<sup>20</sup> 1.2024 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli qarori

O'zbekistonga kelgan turistlar soni (mln)<sup>21</sup>

Bunday tendensiya va miqdoriy natijalar ham turizm infratuzilmasi ob'ektlari rivojiga ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, xorijiy turistlar mamlakatimizda uzoqroq vaqtga qolayotganligi tufayli ularni joylashtirish bilan bog'liq masalalar ko'paydi, bu esa turizm infratuzilmasi ob'ektlaridagi bandlikka ham ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholini turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning umumiyligi soni 2458 taga yetgan, turoperator va turagentlar soni 1483, joylashtirish vositalari soni esa 1442 taga, gidlar soni 2400 taga etdi.

Erishilgan bunday ko'rsatkichlarning zamirida turizm sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosining to'liq ta'minlanayotganligini hamda 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunining hayotga tatbiq etilayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga "Turizm sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishonini ta'sis etish taklifining qo'llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimizni, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O'zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo'ladi.

Xulosa o'rnida Turizmni nafaqat izchil rivojlanishi bu sohadagi mavjud imkoniyatlardan foydalanimi va yangi xizmat turlarini tashkil etish orqali orqali ayollarning tadbirkorlik potensialini mustahkamlashdir. Ayollar tadbirkorligi va ularning karera qilishlari uchun barqaror loyihamar yaratishni qo'llab-quvvatlash mamlakatdagi xotin qizlar o'zlariga xos va mos ish o'rinlarida bandliligini ta'minlash, o'z ulushiga ega bo'lishi, dunyoviy bilimlarda savotxonligi oshishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishi, oiladagi tinchlik va xotirjamlikni ta'minlashga olib keladi. BMTning kambag'allikni yo'q qilish, munosib ish bilan ta'minlash va iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va notenglikni kamaytirish kabi barqaror rivojlanish maqsadlarini ham amalga oshiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. 2024 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 122-sonli qarori
2. 2023 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 135-sonli qarori
3. <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>
4. <https://www.bss.uz/news/5910-2024-yilda-tadbirkor-allar-uchun-imtizilar>
5. <https://oz.sputniknews.uz/20240308/ayollar-statistikasi>

<sup>21</sup> <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

# **INNOVATIVE USAGE OF WEBSITES FOR TEACHING DETAILS OF FEMALE REPRODUCTIVE SYSTEM AMONG TEENAGERS OF HIGH SCHOOLS**

**Bakhtiyorova Aziza Maksudbekovna**

Student of Urgench branch of Tashkent medical academy

**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Professor, doctor of medical sciences of the department of internal diseases, rehabilitation and folk medicine of Urgench branch of Tashkent medical academy

## **Abstract:**

This thesis investigates the effectiveness of websites as a tool for teaching high school teenagers about the intricate details of the female reproductive system. It delves into the challenges of traditional classroom approaches and examines how online platforms can provide a more engaging and accessible learning experience for adolescents. Through a combination of qualitative and quantitative methodologies, this research analyzes the impact of website usage on teenagers' comprehension, retention, and attitudes towards reproductive health education. The findings shed light on the potential of digital resources in addressing gaps in reproductive health education and empowering young individuals to make informed decisions about their bodies and well-being.

## **Introduction:**

Тадбиркорлик постиндустрисал жамиятга асосланган иқтисодиётнинг муҳим хусусиятларидан бири бўлиб, иқтисодий тизим сифатида товар-пул хўжалигининг устунилигини таъминлашнинг бош омилидир. У бозор иқтисодиёти фалсафасининг асосини ташкил этади. Тадбиркорлик фаолиятисиз бозор хўжалигини тасаввур қилиб ҳам, ривожлантириб ҳам бўлмайди. Тадбиркорлик инсонларга табиат инъом этган шундай бир муъжизаки, у индивидда мужассамлашган барча фазилатлар (ақл, идрок, тафаккур, билим, тажриба, қобилият, истеъод, меҳнатсеварлик, шижаот, жасурлик, қатъийлик, таваккалчилик ва ҳоказолар)ни рўёбга чиқаради ва бу борада ҳеч қандай бошқа восита ёки фаолият унинг ўрнини боса олмайди. Бозор муносабатларига асосланган иқтисодиётнинг фалсафасини, унинг негизини ташкил этган айнан ана шу муъжиза, яъни тадбиркорлик муъжизаси бозор хўжалиги шароитида жадал иқтисодий юксалиш ва тараққиётда инсон ақлини лол қолдирадиган иқтисодий кўрсаткичларга эришиш сирларини ўзида ифодалайди.

Хўш, тадбиркорликнинг ўзи нима, ҳозирги замонда жуда кенг тарқалган, бозор хўжалигининг асосини ташкил этиб турган ушбу тушунчанинг асл мазмун-моҳияти нимадан иборат? Ушбу муҳим савол назарий жиҳатдан ўзининг тўғри ечимини топмас экан, жамиятда тадбиркорликка нисбатан тўғри, оқилона муносабат ўрнатиш, уни ривожлантиришга оид самарали сиёsat олиб бориш жуда қийин бўлади. Шу боисдан ушбу масала бўйича ўзимизнинг айрим фикр-мулоҳазаларимизни баён этишни лозим деб топдик.

Бир сўз билан айтганда, тадбиркорлик тадбиркор томонидан амалга ошириладиган фаолият. Тадбиркор эса тадбир билан иш тутадиган шахс. Аслида “Тадбир” ибораси араб тилидан олинган бўлиб, бирор ишни, мақсадни амалга ошириш, рўёбга чиқариш воситаси, тадбиркор эса ишни пухта ўйлаб, режа асосида мақсадга эришишни кўзлаб иш тутувчи шахс ҳисобланади. Тадбирнинг моҳиятига доир мавжуд муаммоларни ҳисобга олган ҳолда, ушбу сўзларнинг луғавий маъносига тўхталишни мақсадга мувофиқ деб топдик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида «тадбир бошқариш, идора қилиш; тежамкорлик; чора, илож, йўл-йўрик; ҳаракат тарзи», деб кўрсатилган. Бундан ташқари “Тадбир” ибораси бир неча мазмунда кўлланилиши эътироф этилган: 1. Амалга ошириш, рўёбга чиқариш учун йўл-йўрик ва чора. 2. Мақсадни амалга ошириш йўлидаги иш, хатти-ҳаракатнинг ўзи. Бу шунчаки оддий тадбир бўлмай, у ер юзида тинчликни мустаҳкамлаш иши билан чамбарчас боғланиб кетади. 3. Маълум мақсадда ташкилий равишда амалга ошириладиган (бажариладиган) иш, ишлар<sup>26</sup>. Жамият бундай шахслардан, уларнинг фаолиятидан манфаатдор. Чунки пухта ўйлаб, палама-партиш ва ортиқча ҳаракатларга йўл қўймасдан, режали, мақсадли фаолият жамият ривожининг бош омили, асосий воситаси ҳисобланади.

Режали, маъмурий-буйруқбозлик тизими шароитида хўжалик субъектларида ҳамма нарсани пухта ўйлаб, тадбирли фаолият олиб боришга ҳеч қандай эҳтиёж ва зарурат йўқ. Жойларда ҳамма ишни юқоридан, ягона марказдан белгиланган режа ва буйруқ асосида ўз вақтида аниқ ижросини таъминлашнинг ўзи кифоя. Пастки бўғинларда ҳеч қандай ташабbus ва тадбиркорликка ўрин ҳам, ҳожат ҳам йўқ, умуман улар бу тизим моҳиятига ва талабларига

<sup>26</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон миллӣй энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2008, учинчи жилд 636-б.

мос келмайди. Аксинча, ишбилиармонлик ва тасаббускорлик иқтисодиётни ягона марказдан режа асосида бошқариш усуллари ва тамойилларига тамоман зид келади. Шу сабабли режали иқтисодий тизим шароитида тадбиркорлик фаолияти ман этилган эди.

Бундан фарқли ўлароқ, бозор муносабатларига асосланган иқтисодий тизим тадбиркорликка кенг имкониятлар очиб беради, унга тўла таянади ва, айни бир пайтда, унинг иқтисодиётни жадал юксалтиришдаги чексиз имкониятларидан унумли ва мақсадли фойдаланади. Тадбиркорлик бозор иқтисодиётининг асосини ташкил этади ва унинг инсониятга ҳозиргача маълум бўлган бошқа барча тизимлардан мутлақ устунлигини таъминлади.

Шу сабабли кўп йиллар давомида тадбиркорлик феноменига оид кўплаб илмий изланиш ва тадқиқотлар олиб борилган, турли иқтисодий мактаб намоёндалари ва мутафакирлар бу тўғрисида қимматли ва эътиборга молик фикрлар билдирганлар ва шу тариқа тадбиркорликнинг назарий асосларини яратишда ўзларининг муносиб ҳиссаларини қўшганлар.

Дастлаб ўрта асрларда араб мутафаккири Ибн Халдун “касб” (“тадбиркор” тушунчасига жуда яқин мазмундаги) тушунчасини талқин этиб, уни мулкка эгалик, меҳнат ҳамда инсон қобилиятлари билан боғлаб изоҳлаган. Фарб цивилизациясида “тадбиркор” тушунчаси биринчи марта 1723 йилда Парижда нашрдан чиққан “Умумий тижорат луғати”да кўлланилган ва унда “тадбиркор” деганда “ишлаб чиқариш ва объектлар қурилиши бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олган шахс”<sup>27</sup> тушунилган<sup>28</sup>.

Буюк иқтисодчи А.Смит тадбиркорни фойда олиш учун бирон-бир тижорат гоясини амалга ошириш мақсадида таваккалчилик билан иш кўрувчи мулқдор деб тавсифлайди<sup>29</sup>.

Лекин тадбиркорликнинг муайян тартибга келтирилган илмий назарияси француз иқтисодчиси Р. Контилион томонидан XVIII аср биринчи ярмининг ўрталарида, аниқроғи 1725-1730 йилларда яратилган. Бу соҳада Р.Контилионнинг хизмати шундаки, у тадбиркорликнинг биринчи концепциясини яратди ва “тадбиркор” тушунчасинининг моҳиятини очиб берди. Унинг фикрига биноан, тадбиркор ўзидағи олдиндан кўра билиш ва таваккалчилик асосида иш тутиш қобилиятларини ишга солиб, қўшимча даромад олиш мақсадида бозорда ҳаракат қилувчи индивиддир. Тадбиркор тақрор ишлаб чиқаришнинг ҳар қандай босқичида: ишлаб чиқаришда, айрибошлишда, тақсимотда иштирок этиши мумкин.

Р. Контилион тадбиркорликни бевосита хавф-хатар (risk) билан бөглаган ва тадбиркор бозорнинг ноаниқ вазиятида катта масъулиятни ўз зиммасига олиб, қўрқмасдан таваккалига иш тутишига алоҳида эътибор қаратган. Иқтисодчининг тадбиркорлик концепциясини яратишдаги катта хизмати шундан иборатки, у биринчи бўлиб тадбиркорликка хос бўлган учта муҳим хусусиятларини очиб берган.

**Биринчидан**, тадбиркор қўшимча (яъни тадбиркорлик қилмасдан олиш мумкин бўлган даромадига нисбатан кўпроқ) даромад олиш мақсадида иш тутади.

**Иккинчидан**, тадбиркорлик билан шуғулланувчи индивид олдиндан кўра билиш ва хавф-хатардан қўрқмасдан таваккалига иш тутишга журъат этиш қобилиятига эга бўлиши керак. Айнан ана шу қобилияти эвазига у қўшимча даромад олиши мумкин ва олишга ҳақли.

**Учинчидан**, тадбиркорлик хавф-хатарли (riskli) фаолият бўлиб, таваккалига иш тутган

<sup>27</sup> Основы бизнеса / Под.ред. Ю. Б. Рубина. Учебник. 6-е изд. - М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. - С. 47.

<sup>28</sup> Ўша даврларда тадбиркор деган иборада акс эттирилган маъно билан ҳозирги даврда унда ўз ифодасини топган маъно жуда кескин фарқ қиласди. Лекин ҳозирги кунда ҳам ушбу тушунча, унинг моҳияти хусусида иқтисодий адабиётларда жуда кўплаб турли карашларни учратиш мумкин.

<sup>29</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Пер. с англ. Е.М.Майбурда. М.:1993.150 б.

тадбиркорнинг нафақат қўшимча, балки умуман озгина бўлса ҳам даромад олиши хатточи зарар кўрмаслиги ҳам бозорнинг ўзгарувчан шароитларида ҳеч нарса билан ва ҳеч ким томонидан кафолатланмаган, яъни барча иқтисодий масъулият тўлалигича тадбиркорнинг зиммасида қолади.

Ғарбий Европада тадбиркорлик назариясини шакллантириш ва ривожлантиришда физиократлардан Ф.Кенэ ва А. Тюрголарнинг хизматлари катта бўлиб, улар тадбиркорликнинг субъектив жиҳатларига қўпроқ эътибор қаратишган.

Ж.П.Сэй ва А. Маршалл ҳам тадбиркорлик назариясини ривожлантиришда ўзларининг бекиёс хиссаларини қўшдилар. Улар тадбиркорнинг такрор ишлаб чиқаришдаги ролига янгича ёндашдилар. Уларнинг фикрига кўр, тадбиркорнинг асосий функцияси ишлаб чиқариш омилларини оқилона танлаш ва уларни мохирона қўшишдан иборат бўлиб, шунинг эвазига улар тадбиркорлик даромадини олишга эришадилар.

Тадбиркорлик назариясини бойитиш ва уни ривожлантиришда таниқли иқтисодчи Й.Шумпетернинг илмий қарашлари муҳим босқич бўлди. У олдинги концепцияларни ижодий ривожлантириди ва бу борада ўзининг ҳар томонлама асосланган ва истиқболли концепциясини яратди. Й.Шумпетер тадбиркорни иқтисодий ривожланишнинг асосий ишлаб чиқарувчи кучи сифатида талқин қилди ва тадбиркорнинг яратувчанлик, янгиликка интилувчанлик жиҳатларига катта эътибор қаратди. Унинг қарашларига мувофиқ, ишлаб чиқариш омиллари янгича нисбатда ўзаро уйғун бириккан (янги комбинация) тақдирдагина иқтисодий тизим ривожланади. Истемъолчиларга ҳозирги кунгача номаълум бўлган янги маҳсулотни яратиш, такрор ишлаб чиқаришнинг янгича усусларини жорий этиш, хомашёнинг янги манбаларини топиш, меҳнатни ташкил этишининг янги усусларини қўллаш, янги бозорларни забт этиш ва ҳоказолар ишлаб чиқариш омилларининг янги уйғунликда ўзаро бирикишини (комбинациясини) таъминлайди. Такрор ишлаб чиқариш жараёнида ишлаб чиқариш омилларини янгиликлар асосида янгича ўзаро уйғунликда қўшган хўжалик субъектларини Й.Шумпетер тадбиркорлар деб таърифлаган. Демак, у тадбиркорликнинг инновацион жиҳатига катта эътибор қаратган ва бу омил иқтисодиётнинг муқаррар равишида жадал ривожлантиришга олиб келишини асослаб берган.

Режали иқтисодиёт барҳам берилиб, ўрнига иқтисодий ислоҳотлар асосида бозор муносабатлари ташкил топаётган МДҲ давлатларида ҳам тадбиркорлик назариясига оид қўплаб тадқиқотлар амалга оширилди, унинг моҳияти, шунингдек, ўтиш даври ва бозор хўжалигининг ундан кейинги ривожланиш босқичларидағи ўрни ва аҳамиятига, ривожланиш истиқболларига бағишлиланган, айниқса кичик тадбиркорлик хусусида юзлаб, минглаб илмий мақолалар ва монографиялар, дарслик ва ўкув қўлланмалар яратилди.

Табиийки, ўтиш даврини бошидан кечираётган ва тадбиркорлик жадал ривожланаётган собиқ совет республикалари олимлари тадбиркорлик, унинг моҳияти ва аҳамияти масалаларига ҳам жиддий эътибор қаратишиди.

Масалан, россиялик иқтисодчи А. Бусыгин тадбиркорликни "фойда олиш мақсадидаги иқтисодий фаолликнинг маҳсус тури"<sup>30</sup> сифатида таърифлайди. Ушбу таърифда тадбиркорлик иқтисодий фаоллик билан тенглаштирилади, инсон фаолиятини фойда олиш мақсадидаги алоҳида, ўзига хос тури сифатида талқин этилади. Ваҳоланки, иқтисодий фаоллик инсон табиатида азал-азалдан мужассамланган бўлиб, айнан унинг воситасида инсон табиатга таъсир кўрсатиб, ўз эҳтиёжларини қондириш учун зарур бўлган ноз-неъматларни яратган. Ибтидоий жамоа даврларидаёқ иқтисодий фаоллик инсон учун хаёт кечиришнинг асосий воситаси бўлган. Лекин уша даврларда, табиатга фаол таъсир кўрсатишнинг яккаю-ягона мақсади шахсий эҳтиёжларни қондириш учун зарур бўлган неъматларни яратиш, яъни турмуш кечиришдан иборат бўлган. Кейинчалик, бирламчи, иккиласми

<sup>30</sup> Бусигын А. В. Предпринимательство, начальный курс. - М.: НИРП, 1992. - С. 17.

мехнат тақсимотлари натижасида натуранал хўжалик шакли негизида аста-секин товар хўжалигининг пайдо бўлиши инсонларда тамоман янги, яъни хусусий мулкчилик муносабатларининг юзага келишига ва ривожланишига сабаб бўлди. Хусусий мулк пайдо бўлгандан бошлаб, инсон иқтисодий фаолигини янада фаоллаштирувчи янги омил – фойда категорияси пайдо бўлди ва жамиятни харакатга келтирувчи асосий кучга айланди.

Россиялик бошқа иқтисодчи Н. Сирополис тадбиркорликни жонли, динамик фаолият ҳисоблаб, тадбиркорни ишлаб чиқариш корхоналарини ташкил этувчи, уни бошқарувчи ва барча мавжуд рискни ўзига оловчи шахс сифатида талқин қиласди ва унинг қуидаги муҳим хусусиятларини кўрсатиб беради: аниқ мақсадларни кўзлаш; новаторлик; фаолиятнинг рисклилиги; ўзига ишониш; катъиятлилик; жавобгарлик<sup>31</sup>. Ушбу таърифда ҳам тадбиркорлик тушунчасининг моҳияти атрофлича тўла очиб берилмаган. Муаллиф тадбиркорликни жонли, динамик фаолият сифатида талқин этган. Гуёки жонсиз, динамик бўлмаган фаолият ҳам бўлиши мумкин. Ҳар қандай иқтисодий фаолият жонли, динамик бўлиши шарт, акс ҳолда у фаолиятсизлик бўлган бўлар эди. Бундан ташқари, муаллиф тадбиркорни ишлаб чиқариш корхоналарини ташкил этувчиси, уни бошқарувчиси сифатида талқин этади. Ваҳоланки, тадбиркор ишлаб чиқариш корхоналарининг нафақат ташкил этувчиси, уни бошқарувчиси, кўп ҳолларда унинг ижроиси бўлиши ҳам мумкин ва бунга тўсқинлик қилиши мумкин бўлган ҳеч қандай сабаб йўқ. Келтирилган таърифда яна бир муаммо шундаки, унда тадбиркорнинг мақсади ўз ифодасини топмаган.

Кейинги йилларда кичик бизнес тушунчасининг моҳиятини очишга қаратилган тадқиқотлар кучайиб бормоқда. "Экономикс" дарслиги муаллифларининг (Макконелл К. Р., Брю С. Л.) фикрича, "кичик бизнес – бу шундай соҳаки, у товарлар ва хизматлар ишлаб чиқарилиши жараёнида ер ресурслари, капитал ва меҳнатни бирлаштириш бўйича ташабbusни ўз зиммасига олади, шу билан бирга бизнесни юритиш жараёнида асосий карорларни қабул қиласди. Шунингдек, кичик бизнес янгилик яратувчи бўлиб, тижорат асосида янги маҳсулотлар, янги ишлаб чиқариш технологиялари ёки бизнесни ташкил этишининг янги шаклларини ишлаб чиқаришга интилувчи, рискли фаолиятдир"<sup>32</sup>.

М. Лапуста, Ю. Старостин тадқиқотларида "кичик тадбиркорлик – қонунчилиқда белгиланган меъёрларга мувофиқ бозор иқтисодиёти субъектлари томонидан тадбиркорлик фаолиятининг амалга оширилиши"<sup>33</sup>, деб кайд этилган. Кичик тадбиркорликнинг моҳияти, ташкил этилиши ва ривожланишининг айрим жиҳатлари А. Хоскинг, Р. Хизрич, М. Питерс, Ф. Хайекларнинг илмий асарларида<sup>34</sup> ҳам тадқиқ қилинган.

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида тадбиркорлик тушунчаси қуидагича талқин этилган: "Тадбиркорлик" – капитал сарфлаб товар ва хизматлар яратиш билан фойда топишга қаратилган иқтисодий фаолият. Тадбиркор қуидаги тамойилларга таянади: бозор талабига кўра мустақил иқтисодий фаолият олиб бориш; фойда олишдан иборат мақсадга эга бўлиш; иқтисодий маъсулият ва мажбуриятни ўз зиммасига олиб, таваккалига иш қила билиш; янгиликка интилиш; белгиланган қонун-қоидаларга риоя қилиш; тадбиркорлик сирини сақлаш; ижтимоий маъсулиятни ҳис этиш, яъни ўз жамоаси, халқ фаровонлигини таъминлашни ўз фаолиятининг асосий йўналиши деб билиш<sup>35</sup>. Демак, тадбиркорлик

<sup>31</sup> Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: Пер. с англ. - М.: Дело, 1997. - С. 50-60.

<sup>32</sup> Макконелл К. Р., Брю С.Л. Экономикс. Т-1., - М.: Дело, 1992. - С. 38.

<sup>33</sup> Лапуста М. Г., Старостин Ю. Л. Малое предпринимательство. - М.: ИНФРА-М, 1997. - С. 5.

<sup>34</sup> Щумпетер Й. А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. - М.: Эксмо, 2007. - 864 с.; Хоскинг А. Курс предпринимательства. - М.: Дело, 1993. - 230 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. - М.: Дело, 1991. - 159 с.; Хайек Ф. Ф. Познание, конкуренция и свобода. Аналогия сочинений. - М.: Пневма, 1990. - 309 с.; Лемден К. Дж. Финансы в малом бизнесе. Пер. с англ. - М.: Финансы и статистика, 1992. - 200 с.

<sup>35</sup>"Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат миллий нашриёти,. - Т.: 2004.- 8- том. Б.224.

инсоннинг иқтисодий фаолияти, унинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда бошқа иқтисодий фаолият турларидан нималари билан фарқланиши асослаб берилган.

Ватандош олимларимиздан А. Ўлмасов, А. Вахобовлар фикрича, "тадбиркорлик моҳиятан бизнеснинг асосий тури. Аммо ҳар қандай бизнесни тадбиркорлик деб бўлмайди. Бунинг учун бизнес яратувчилик белгиларига эга бўлиши лозим"<sup>36</sup>, Б.А.Эркаев, Г.И.Каримовалар эса "тадбиркорлик фойда олиш мақсадида фуқаролар ва корхоналарнинг ўз ташаббуси асосида мустақил фаолият юритиши" деб таъкидланган<sup>37</sup>. Уларнинг ёндошувларида ҳам тадбиркорликнинг инновацион, яратувчанлик жиҳатига, унинг мақсадига асосий эътибор қаратилган.

Умуман тадбиркорлик, жумладан кичик ва хусусий тадбиркорликка берилган таъриф ва талқинларни ўрганиш ва умумлаштириш асосида шундай назарий хуносага келдикки, ушбу манбаларда бу муҳим тушунчанинг моҳиятини очишда бир томонлама ёндошилган.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Мухаммедов М.М., Ю.П.Урунбаева Аҳоли турмуш даражасини шакллантириш омиллари ва ошириш истиқболлари. «Зарафшан», 2010.
2. Мухаммедов М.М. К вопросу о повышении производительности труда в Республике Узбекистан. «Аҳолининг турмуш даражасини кўтариш ҳамда ижтимоий ҳимоясини кучайтириш йўллари ва воситалари» мавзусидаги илмий - амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2002 йил.
3. Pirnazarovna, U. Y. (2024). LABOR RESOURCES-INVALUABLE ASSETS. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 443-446.
4. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE THEORETICAL FRAMEWORK FOR MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 355-358.
5. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE IMPACT OF MUSEUM TOURISM ON ENHANCING QUALITY OF LIFE. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 359-363.
6. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Service Provision and Standard of Living of the Population; Interdependence. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation* (2993-2777), 1(10), 25-27.
7. Pirnazarovna, U. Y., & Ismatjonovna, U. M. (2023). SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF THE SERVICE SECTOR. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(6), 1-6.
8. Pirnazarovna, U. Y. (2023). THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 12, 20-25.
9. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Factors Affecting the Level of Population. *Miasto Przyszlosci*, 34, 180-186.
10. Pirnazarovna, U. Y., & Bakhodirovich, E. D. (2022). THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND THE SERVICE SECTOR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 705-709.
11. Pirnazarovna, U. Y. (2020). The role of tourism in shaping the quality and standard of living of the population. *Academy*, (2 (53)), 13-15.
12. Pirnazarovna, U. Y. (2019). The development of service sector is an important factor in creating new jobs and ensuring employment. *Academy*, (12 (51)), 32-38.

<sup>36</sup> Yulduz P. Urunbaeva Increasing the impact of service sector on the living standards of population in innovative economy environment <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10387/5598> 2020. 05.

<sup>37</sup> Б.А.Эркаев, Г.И.Каримова. Бозор иқтисодиёти: Изоҳли лугат. –Т.: Шарқ, 1997. - Б. 121.

13. Pirnazarovna, U. Y., & O'G'Li, A. S. H. (2019). The role of tourism services on raising the living standards of the population. *Вопросы науки и образования*, (18 (65)), 27-30.
14. Urumbaeva, Y. P., & Raximberdiyev, T. (2023). COMPREHENSIVE ANALYSIS OF POPULATION INCOME LEVELS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(11), 8-14.
15. Urinboeva, Y. P., Khasanovna, D. D., & Shodmonovna, S. C. (2021). THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF LIVING STANDARDS AND SERVICES OF THE POPULATION. *International journal of trends in commerce and economics*, 11(1).
16. Urumbayeva, Y. P. (2019). THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN THE FORMATION OF POSTINDUSTRIAL SOCIETY. In *Colloquium-journal* (No. 26-8, pp. 11-15). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.
17. Umirzakova, M. I., & Baratova, M. I. (2021). THE ESSENCE OF THE SERVICE SECTOR AND THE SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF RAPID DEVELOPMENT TODAY. *Экономика и социум*, (11-1 (90)), 591-597.
18. Урунбаева, Ю. П. (2023). АХОЛИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШДА ХИЗМАТ КҮРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).
19. Уринбаева, Ю. П., Ҳимматова, Б. Б., & Уралов, Ш. А. (2019). АХОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 472-475).
20. Урунбаева, Ю. П., Нуруллаева, Ш. И. К., Давлатова, Н. Б. К., Истамов, Ш. А. У., & Очилова, Ю. Т. К. (2019). Роль услуг в развитии инновационной экономики. *Достижения науки и образования*, (7 (48)), 15-17.
21. Урунбаева, Ю. (2016). Роль сферы услуг в социально-экономическом развитии страны. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 38-46.
22. Урунбаева, Ю. П. (2013). Хизмат курсатиш соҳдси ва ахоли турмуш даражаси: узаро боғликлиги ва ривожланиш истиқболлари. *Монография. Тошкент:«ФАН*, 156.
23. Урунбаева, Ю. П. (2020). НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЕ. In *Российская экономика: взгляд в будущее* (pp. 180-185).
24. Урунбаева, Ю. (2016). Возможности увеличения свободного времени населения на основе развития сферы услуг. *Экономика и инновационные технологии*, (5), 88-93.
25. Уринбаева, Ю. П. (2016). Перспективы повышения уровня жизни населения на основе развития малого и частного бизнеса. *Научный альманах*, (11-1), 321-326.
26. Урунбаева, Ю. П. (2016). Уровня жизни населения это социально-экономическая природа. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ФАКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ, ПРОГНОЗЫ* (pp. 58-60).
27. Урунбаева, Ю. П. (2016). СФЕРЫ УСЛУГ И УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. In *НАУКА СЕГОДНЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 97-99).
28. Уралов, Ш. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). Теоретико-методологические проблемы развития сферы услуг. In *ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ГОДА 2020* (pp. 116-123).
29. Уралов, Ш. А., Нурматова, С. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ как ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ, ОСНОВАННОЙ НА РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. In *СТУДЕНТ ГОДА 2020* (pp. 105-112).
30. Урунбаева, Ю. П. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ-ТАРАҚҚИЁТИНИНГ БОШ ОМИЛИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(3), 57-60.

## OLIMA AYOLLAR – MILLAT KELAJAGINING POYDEVORIDIR

Gaziyeva N.Sh. Angren universiteti  
katta o'qituvchisi, Angren shahar, MT yo'nalishi  
talabasi Ortiqboyeva D.T

Ayol — oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki. Ayollar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir. Xotin-qizlari e'zozlangan, qadrlangan yurting esa buguni va ertasi farovondir. Chunki ayol mehnati bilan jamiyat to'laqonli rivojlanadi, taraqqiy etadi. ayol o'zini baxtli his qilsa, jamiyat baxtli bo'ladi, oilada ma'naviy muhit barqarorligi ta'minlanadi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deb bejizga aytmagan.

Ma'rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi. Chunki aynan u bolalarni tarbiyalaydi va ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Qiz bola oliv ma'lumotli bo'lsa, yuksak bilim va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Chunki ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko'taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa yuklangan. Jamiyatimizda xotin-qizlarning ilm-fan sirlarini puxta egallashi, o'z qobiliyati va imkoniyatini jamiyat taraqqiyoti uchun yo'naltirishi yangi O'zbekiston kelajagi yo'lida ijtimoiy faollik garovidir. Olima ayollar jamiyatiga har yili 50 milliard so'm ajratiladi. Zamonaviy kasb-hunarlarini egallah, o'qimishli, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish shu tariqa umummilliy harakat darajasiga ko'tarilayotgani ayollarning baxtidir. Har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim ro`l kasb etadigan tarbiya masalasi oiladan shakllanadi. Oila esa o'z navbatida, undagi er-hotin, ota-onalar bilan farzand o`rtasidagi munosabatlarning maskanidir. Shunday ekan bir – biriga bog`liq bo`lgan munosabatlar zamirida jamiyatni tashkil qiluvchi **shaxs** shakllanadi. O'tgan davrlarga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimiz ilm-fani, ma'rifat va ma'naviyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimalarning o'rni ham beqiyos ekanini ta'kidlash o'rinlidir. Jamiyatimizda xotin-qizlarning ilm-fan sirlarini puxta egallashi, o'z qobiliyati va imkoniyatini jamiyat taraqqiyoti uchun yo'naltirishi yangi O'zbekiston kelajagi yo'lida ijtimoiy faollik garovidir.

Ayollar ta'limiga alohida e'tibor berilayotgani tufayli o'tgan yili oliv o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bundan olti yil avval oliygohlarda 110 ming nafar qiz tahsil olgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 400 ming nafarga yetdi yoki ulushi 2016-yildagi 38 foizdan ayni paytga kelib qariyb 50 foizga yetdi. Zahmatkash olimalarning mashaqqatli va sharaflı mehnatini munosib rag'batlantirish, ular uchun har jihatdan qulay sharoit yaratilmoqda. Zamonaviy kasb-hunarlarini egallah, o'qimishli, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish shu tariqa umummilliy harakat darajasiga ko'tarilayotgani ayollarning baxtidir. Shunday ekan, shukrona tuyg'usi bilan yashash va qizlarimizni o'qitishni kun tartibidagi birinchi masala sifatida belgilasak, yurtimiz rivojiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Ayolni ulug'lash, unga oila gultoji, kelajak avlod tarbiyachisi, millat davomchisi sifatida ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xosdir, xotin-qizlarni ijtimoiy faollashtirish, huquq va manfaatlarini ta'minlash, salomatligini mustahkamlash, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlikka jalb qilish kabi ustuvor yo'nalishlardagi sa'y-harakatlar qamrovi tobora kengaymoqdaki, natijada ularning oilada ham, davlat va jamiyat hayotida ham nufuzi yuksalib bormoqda. Zero, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligi, oilaning, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Bugungi kunda o'zbek ayollarining nafaqat oila va farzandlar tarbiyasidagi o'rni, balki, mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi ham beqiyos.

Bugun yurtimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini, qonuniy manfaatlarini ta'minlash qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir so'z bilan aytganda opa singillarimizni jamiyatning teng huquqli, faol va buniyodkor a'zosiga aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni to'laroq anglash uchun ayol tarixiga nazar tashlash kerak. Qadimgi davrlarda ayol oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga tegmagan, uning vazifasi turmush o'rtog'ini uyda kutish, taom pishirish, uyni jihozlash, bolalarni tarbiyalash edi. Antik davrda, odamlarning ongi yanada rivojlandi, ko'plab mamlakatlarda ayollarga e'tibor, ularni qadrlash va tinglash yuzaga keldi.

Qadimgi Yunonistonda ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni sof davlat topshirig'i edi. Ayolning vazifasi turmush o'rtog'iga nima qilish kerakligini va uni qanday qilib to'g'ri bajarishini aytib berish, unga rahbarlik qilish edi. O'sha paytda sevgi nikohlari bo'limgan, barcha munosabatlar va oilalar siyosiy manfaatlarga muvofiq ravishda qurilgan. Farzandli bo'lish ham davlat tomonidan qo'yilgan vazifa edi. Agar ayol bolalay olmasa, demak, erkak uyiga boshqasini olib kelish huquqiga ega bo'lgan. Albatta, erkak unga uylanmagan, uning rafiqasi bitta hisoblangan, ammo munosabatlar hamma oldida oshkor bo'lgan. Agar bunday odatiy ayollar bolalarni dunyoga keltirgan bo'lsa, unda ular to'laqonli merosxo'rga aylanishgan. Sobiq ittifoq davrida oilaning xavfsizligi, bolalarni tarbiyalash va ularning kelajakdag'i hayoti uchun aynan ayol javobgar edi. Oilada nima bo'lishidan qat'i nazar ayol kishi javobgar bo'lgan. Chunki fuqarolarining psixologiyasi shu tarzda qurilganki, barcha erkaklarning xatolari uchun ayol javobgar edi. Ajrashish yoki nikohsiz farzand ko'rish uning uchun uyat edi. Er va bola izlagan har bir narsa ayolning qadr-qimmati deb hisoblangan, keyin u namunali fuqaro, yaxshi uy bekasiga aylangan. Bu davrdagi ijtimoiy hayot shundan dalolat beradi, erkak Vatan manfaati uchun, ayol esa oila farovonligi uchun ishlagan. Erkak kishining yutuqlari ayolning oilaviy hayotda nimaga intilayotganiga bevosita bog'liq edi. Ayollar har doim moslashuvchan aql va ayyorlik bilan ajralib turganlar. Bugungi kunda psixologlar ayollarni quyidagi toifadagi ayollarga ajratdilar:

- rahbarlar;
- kariyeristlar;
- uybekalari;
- mustaqil kasb egalari.

Yetakchi ayollar ko'p jihatdan erkaklarnikiga o'xshash xarakter xususiyatlariga egalar: ular maqsadga muvofiq o'z kuchlariga ishonishadi va hech kimning yordamiga umid qilmasdan o'zlar hamma narsaga erishadilar. Rahbarlik xususiyati hamma ayollarga xos emas. Rahbarlik qobiliyatiga ega ayol nafaqat rahbarlik vazifasini balki o'ziga tegishli boshqa rollarni ham qiynalmasdan bajaradi. O'zini anglash - bu har doim ish va martaba yutuqlarini birinchi o'ringa qo'yadigan kariyerist ayollarining asosiy maqsadi. Bunday natijalardan keyingina ular oila qurish va bolalarni rejalashtirish haqida o'ylashlari mumkin. Zamонавија jamiyatdagi uy bekasi rolini tanlagen ayolning mavqeи, qoida tariqasida, bugungi kunda eng yaxshi tomondan ko'rib chiqilmaydi. Albatta, ba'zi hollarda, ayol faqat o'choq saqlovchisi va turmush o'rtog'ining sodiq do'sti sifatida harakat qilishdan juda mammun. Ammo ko'pincha bu tanlov turmush o'rtog'ining xarakteriga xos xudbinlik, egalik, rashk va boshqalar kabi xususiyatlarga bog'liq. Barkamol avlodni tarbiyalashda, avvalo, oila muhitini, oila ma'naviyatini yuksaltirish, ayollarga hurmat va e'tiborni yanada kuchaytirish bugungi kun talablaridan biridir. Chunki kelajagimiz bo'lgan yosh ma'naviy barkamol avlod mana shu oilaviy muhitda, shu oiladagi tarbiya tufayli voyaga etadi. Oilada masalan: qo'ni-qo'shnini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig've muhiti hukmron bo'lsa, hech shubhasiz, bolaning xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asoratlar qoldirar ekan. Umuman aytganda, oilaviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh bo'lib voyaga etishini O'zbekistonda yashayotgan har bir otanonadek buyuk sharafga ega bo'lgan insonlar to'g'ri anglab tushunib olmoqlari zarurdir. Ular birinchi navbatda o'z oila muhitini yaxshilamog'i, uni muqaddas deb bilmog'i, bola tarbiyasida o'ta mas'uliyati kuchli ekanligini, shuningdek, ulkan mas'uliyatli vazifa orqali mustaqil

O'zbekistonning taraqqiyotiga, yuksalishiga o'z hissasini qo'shayotganligini his qilmog'i

darkordir. Demakki, sog'lom oila muhitida tarbiyalangan har qanday farzanddan barkamol avlod etishib chiqishi shubhasizdir, buning uchun biz ayollar har tomonlama ijodkor va yangi inovatsion yangiliklarga ochiq bo'lib kelajak avlodlarga tarbiya berishda o'zimiz o'rnak bo'lishimiz kerak. Qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan hayotda erta rivojlanadi va hayotga bo'lgan qiziqishlari atrof muhitdagi yangiliklarni ham tez ilg'aydi. Shuning uchun mактабгача, мактаб ва олийгohlarda ham ko'proq yutuqlarga erishadi. Bir ayol agar bitta kitob o'qisa albatta buning foydasini avvalo o'zida, keyin esa farzandlarida sezadi yaniyki bir ayolning ilmliligi atrofidagi bir qancha insonlarga ta'sir ko'rsatadi. Hozirda Angren universitetida ham tashkil etilgan "Bir oyda bir kitob" loyihasi ko'plab yosh talabalarni ma'nan yetuk va salohiyatli qilib tarbiyalashda juda katta hissasini qo'shamoqda.

# ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЖЕНСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна

Наманганский инженерно-строительный институт

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор

E-mail: [ozoda.safibullayevna121620@gmail.com](mailto:ozoda.safibullayevna121620@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье проанализирована роль цифровых технологий в женском предпринимательстве. Они открывают женщинам новые возможности для успешного предпринимательства и помогают им достичь своих целей в бизнесе. Для женщин особенно важно пройти этап цифровизации, чтобы быть конкурентоспособной на рынке труда и в обществе в целом. Цифровые навыки помогают женщинам расширить возможности для карьерного роста, обучения и саморазвития, а также улучшить качество жизни. Кроме того, цифровая грамотность позволяет женщинам быть более информированными, связанными и эффективными в современном мире, где технологии играют все более важную роль.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, женское предпринимательство, технологии, цифровые навыки, цифровая грамотность.

За последние два года в Узбекистане достигнут определенный прогресс в развитии информационных технологий в нашей стране. Основной движущей силой этого процесса является стратегическое видение правительства и высокий уровень политической поддержки.

В Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан к 2030 году планируется включить Узбекистан в рейтинг 50 ведущих стран в Глобальном инновационном индексе. Было издано Постановление Президента Республики Узбекистан 28 апреля 2020 года №ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» в соответствии 5-приложении в пункте-12.1, а также Указ Президента Республики Узбекистан 5 октября 2020 года №УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации», в котором актуальность придаётся разработке инновационных информационных систем.

В связи с этим бизнес и цифровая трансформация в ИТ сфере идут рука об руку, поскольку современные технологии становятся все более важными для успешного функционирования компаний, так как они помогают компаниям улучшить свою конкурентоспособность, привлечь новых клиентов и улучшить качество предоставляемых услуг.

Женское предпринимательство в мире развивается в условиях все большей конкуренции и быстро меняющихся рыночных условий. Женщины становятся все более активными участниками бизнес-сферы, открывая собственные компании, создавая инновационные продукты и услуги, и участвуя в различных проектах. Для женщин особенно важно пройти этап цифровизации, чтобы быть конкурентоспособной на рынке труда и в обществе в целом. Цифровые навыки помогают женщинам расширить возможности для карьерного роста, обучения и саморазвития, а также улучшить качество жизни. Кроме того, цифровая грамотность позволяет женщинам быть более информированными, связанными и эффективными в современном мире, где технологии играют все более важную роль.

Этапы цифровизации в женском бизнесе могут включать в себя следующие

компоненты:

1. Анализ текущего состояния бизнеса: на этом этапе необходимо провести анализ текущих процессов и технологий в компании, выявить слабые места и потенциальные возможности для улучшения.
2. Цифровая стратегия: разработка цифровой стратегии, которая определит цели и приоритеты цифровизации, а также способы достижения этих целей.
3. Выбор цифровых инструментов: выбор и внедрение подходящих цифровых инструментов и технологий, которые помогут автоматизировать процессы, улучшить коммуникацию с клиентами и оптимизировать работу бизнеса.
4. Обучение персонала: обучение сотрудников работе с новыми цифровыми инструментами и технологиями, чтобы они могли эффективно использовать их в повседневной деятельности.
5. Мониторинг и анализ результатов: постоянный мониторинг и анализ результатов цифровизации, чтобы оценить эффективность внедренных изменений и вносить корректировки при необходимости.
6. Постоянное развитие: постоянное обновление и улучшение цифровых процессов и технологий, чтобы бизнес оставался конкурентоспособным и соответствовал требованиям рынка.

Женщине-руководителю компании в условиях цифровой трансформации требуется набор навыков и умений, таких как hard skills и soft skills.

Среди hard skills, которые понадобятся для успешной цифровой трансформации, можно выделить:

1. Знание основ программирования и ИТ-технологий, чтобы понимать принципы работы цифровых инструментов и систем.
2. Умение анализировать данные и проводить бизнес-анализ для выявления потенциальных улучшений и возможностей внедрения цифровых решений.
3. Навыки работы с цифровыми инструментами и платформами, такими как CRM-системы, управление проектами, автоматизация процессов и другие.
4. Понимание цифрового маркетинга и онлайн-продаж для эффективного продвижения продукции и услуг компаний в интернете.

Среди soft skills, которые также будут необходимы для успешной цифровой трансформации, можно выделить:

1. Лидерские качества и умение мотивировать команду на изменения и внедрение новых технологий.
2. Коммуникативные навыки для эффективного общения с коллегами, партнерами и клиентами на разных уровнях.
3. Умение работать в условиях быстрого изменения и адаптации к новым технологиям и требованиям рынка.
4. Способность креативно мыслить и находить инновационные решения для развития бизнеса через цифровые технологии.

Так как цифровая трансформация - это процесс применения цифровых технологий для изменения бизнес-моделей для повышения эффективности и конкурентоспособности компании, где технологии здесь являются основой деятельности. Из этого следует, чтобы стать успешным руководителем компании, женщине необходимо решить ряд важных вопросов. На первом месте стоит организация обеспечения бизнеса необходимым оборудованием и набором технологий для дальнейшего развития.

Примеры цифровой трансформации можно привести облачные технологии, так как облачные сервисы позволяют компаниям улучшить доступ к данным, повысить гибкость и эффективность работы; искусственный интеллект, так как использование AI и ML позволяет автоматизировать процессы, улучшить аналитику данных и создать персонализированные решения; интернет вещей (IoT), так как IoT позволяет связать различные устройства для сбора и анализа данных, что способствует улучшению управления и оптимизации процессов.

Таким образом, для успешного развития женщины-предпринимателю необходимо принимать стратегические решения, определять цели и задачи предприятия, а также контролировать их выполнение. Она должна быть готова к саморазвитию и обучению, чтобы быть в курсе последних тенденций и инноваций в своей отрасли. Только таким образом женщина-руководитель сможет эффективно управлять компанией и обеспечить ее успешное развитие. Кроме того, необходимо также учитывать изменения в потребительском поведении, рыночной конкуренции и технологических трендах. Важно постоянно анализировать рынок, изучать потребности клиентов, следить за новыми технологиями и адаптировать свой бизнес под изменяющиеся условия.

## ЛИТЕРАТУРА

- [1] Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
- [2] Abdullayeva, O. S., Xusayinova, G. A., & Muhammadjonov, A. O. (2024, February). Technology of projecting of management system for department activities. In Third International Conference on Optics, Computer Applications, and Materials Science (CMSD-III 2023) (Vol. 13065, pp. 303-307). SPIE.
- [3] Бекназарова, С. С., & Абдуллаева, О. С. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАФЕДРЫ. Science and innovation, 2(Special Issue 10), 465-468.
- [4] Safibullaevna, A. O., & Azamxonov, B. S. (2024). TECHNOLOGY OF CREATION AND APPLICATION OF AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 5(01), 31-38.
- [5] Ozoda, A., & Azamxonov, B. S. (2023). MEANS OF ORGANIZING AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. Innovations in Technology and Science Education, 2(17), 438-449.
- [6] Озода А. и Ойдин З. (2023). РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО МЕНЕДЖЕРА ОБРАЗОВАНИЯ. Инновации в области технологий и научного образования , 2 (9), 416–425.
- [7] Абдуллаева, О. (2023). НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАФЕДРЫ В КОНТЕКСТЕ ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ. Наманганский давлат университета Ильмий ахборотномаси , (6), 461-468.

# BIRLASHGAN ARAB AMIRLIGI TURIZM XAVFSIZLIGI

Muxtorxonova Ozoda Axrorovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turizm (xalqaro) yo'nalishi talabasi

Email: [ozodamuxtorxonova@gmail.com](mailto:ozodamuxtorxonova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola turizmda xavfsizlik mavzusini olib berishga qaratilgan, buning misolida esa Birlashgan Arab Amirligi namuna sifatida olingan. Maqlada xavfsizlikning turizmdagi ahamiyatini o'rganamiz va BAA misolida turistlar uchun joriy qilingan qonun qoidalarni o'rganib chiqamiz. Turizmda qanday xavfsizlik turlari borligi haqida batafsil o'rganamiz va qaysi xatti harakatlar uchun qanday jarima va jazolar borligini bilib olamiz.

**Kalit so'zlar:** xavfsizlik, mehmono'st, sayyoohlar, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, jismoniy xavfsizlik, psixologik xavfsizlik.

**Annotation.** This article aims to reveal the topic of security in tourism, using the United Arab Emirates as an example. In this article, we will study the importance of security in tourism and learn the laws and regulations introduced for tourists in the UAE as an example. We will learn in detail about the types of security in tourism and find out what fines and penalties exist for which actions.

**Key words:** safety, hospitality, tourists, sustainable development, ecological safety, physical safety, psychological safety.

**Аннотация.** Целью данной статьи является раскрытие темы безопасности в туризме на примере Объединенных Арабских Эмиратов. В статье мы изучим важность безопасности в туризме и на примере изучим законы и правила, введенные для туристов в ОАЭ. Мы подробно узнаем о видах безопасности в туризме и выясним, какие штрафы и пени существуют за какие действия.

**Ключевые слова:** безопасность, гостеприимство, туристы, устойчивое развитие, экологическая безопасность, физическая безопасность, психологическая безопасность.

Turizmda xavfsizlik – bu sayohatchilarining farovonligi va xavfsizligini, shuningdek, ular tashrif buyuradigan mahalliy hududlarni xavfsizlik bilan ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar o'z ichiga olgan muhim jihatdir. Bu turizm industriyasining barqaror rivojlanishi va sayyoohlarni sayohatdan zavq olishi uchun zarur hisoblanadi. Turizmda asosan uch turdag'i xavfsizlik turlari mavjud. Ularga: jismoniy xavfsizlik, psixologik xavfsizlik va ekologik xavfsizlik kiradi.

Jismoniy xavfsizlik – bu odamlarni sayohatlari davomida duch kelishlari mumkin bo'lган xavflardan himoya qilishni o'z ichiga oladi. Bunga transport, turar joy va turistik diqqatga sazovor joylarning ishonchlilagini ta'minlash, bundan tashqari, shoshilinch xizmatlar va tibbiy yordam ko'rsatishni ham kiritsak bo'ladi.

Psixologik xavfsizlik – bu sayyoohlar uchun mehmono'st muhitni yaratishni nazarda tutadi. Bunday xavfsizlikga mahalliy urf – odatlarni va an'analarni hurmat qilish, hamda o'zini noqulay his qilayotgan turistlarga yordam ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi.

Ekologik xavfsizlik – bu chiqindilarni ma'suliyat bilan boshqarish, tabiiy resurslarni saqlash va yovvoyi tabiatni muhofaza qilishdir. Bu orqali biz nafaqat turistik joylarning ekologik yaxlitligini saqlay olamiz, balki ba'zi sanoat markazi bo'layotgan hududlarning tabiiy landshaftlariga ham sezilarni ta'sir ko'rsata olishimiz mumkin.

Birlashgan Arab Amirligida ham turizmdagi xavfsizlik eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, turizm sanoatida birinchi o'rinda turadi. Chunki mamlakatda tinchlik va xavfsizlik

ta'minlangan bo'lsa doimiy turizmda rivojlanish bo'laveradi. Mamlakatda qanchadan qancha diqqatga sazovor joylari bo'lmasin, agar tinchlik va xavfsizlik ta'minlanmagan bo'lsa, har qanday turist ham ushbu davlatga tashrif buyurishga ikkilanadi. BAA shuni sezgan holda mamlakat bo'ylab qat'iy amal qilinadigan bir qator qonunlarni xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlab chiqqan. BAA hukumati sayyoohlar va aholining xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy kuzatuv kameralari, tajribali huquqni muhofaza qilish organlariga katta sarmoya kiritdi. Bundan tashqari ham mahalliy aholi uchun, ham turistlar uchun amal qilinishi majburiy bo'lgan bir qator qonunlar chiqarildi. Birlashgan Arab Amirligi turli xil millat vakillari istiqomad qiladigan joy bo'lishiga qaramay, u yerdagи turistik jarimalar ushbu mamlakatga kelgan har bir kishi yaxshi bilishi kerak bo'lган ma'lumotlardir. Muammolarga duch kelmaslik uchun, sumkangizni tayyorlashdan avval ushbu davlatning qonun qoidalarini yaxshilab o'rganib chiqing. Dubayning turistlar uchun talablari boshqa amirliklarga nisbatan yumshoqroq bo'lsa-da, jamoat joylarida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqot qilishdagi cheklowlarga e'tiborli bo'lish va yana bir qancha qat'iy qonun qoidalari bor. Quyida esa muammolardan qochish va chegarani kesib o'tmaslik uchun taqiqlangan ishlar ro'yhati bilan yaxshilab tanishib chiqing.

Spiritli ichimliklarni iste'mol qilish noqonuniy harakatdir. Spiritli ichimliklar ichish va jamoat joylarida mastlik holatida bo'lish jinoiy jazoga sabab bo'ladi. Buning uchun tegishli shaxsni 6 oy qamoq yoki \$545 bilan jarimaga tortishlari mumkin. Biroq, Dubay sayyoohlar uchun mehmonxonalarda, barlar yoki restoranlarda ichishni taqiqlamaydi, agar siz ziyoftdan so'ng darhol uyingizga borsangiz hech qanday muammo kelib chiqmaydi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, hech kim sizni ichib olganingiz uchun taqib qilmaydi, agar spiritli ichimlik iste'mol qilgandan keyin ko'chada yurishni tanlasangiz va hech qanday muammo keltirib chiqarmasangiz sizga politsiya hech qanday e'tiroz bildirmaydi. 2022-yilning 8-noyabriga qadar sayyoohlarga spiritli ichimliklarni xarid qilish taqiqlangan edi. Hozirda bu qonun Sharja amirligidan boshqa barchasida bekor qilingan. Sotib olish uchun sizdan qonunan tasdiqlangan litsenziya talab qilinadi. Birinchi navbatda passportizni taqdim etasiz, keyin esa ariza yozishingiz kerak bo'ladi, undan so'ng esa siz amirlikdan 30 kun davomida bepul spiritli ichimliklар xarid qilishingiz mumkin. Dubay siz spiritli ichimliklar olib kirishingiz ham mumkin ekan faqat uning massasi 2litrgacha bo'lishi shart.

Narkotik moddalar: BAA hududida giyohvand moddalar bilan har qanday aloqadorlik taqiqlanadi va qat'iy jazolanadi. Giyohvand moddalarni saqlaganlik uchun \$2.723 gacha jarima to'lanishi yoki 4yilgcha qamoq jazosi berilishi mumkin. Ularni tarqatish esa eng o'g'ir jazo hisoblanadi, ya'ni umrbod qamoq jazosi. Ba'zi bir dori vositalarida ham narkotik moddalar uchrashi mumkin, shuning uchun agar sizda shifokor tomonidan berilgan dorilar ro'yhati bo'lmasa, dorilarni Amirlik hududiga olib kirish tavsiya etilmaydi, chunki BAA aeropotida eng kichik miqdordagi narkotik moddalarni ham aniqlay oladigan texnikalar mavjud.

Rasm yoki video olish: odamlarning rozilgisiz suratga yoki videoga olish shaxsiy hayotiga aralashish bilan barobar bo'lib, 7 yilga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Biroq atrof muhitni rasmga olish taqiqlangan emas. Mahalliy aholini suratga olishdan esa ehtiyyot bo'ling, bu qat'iy taqiqlangan. Agarda ushbu olgan suratlaringizni ijtimoiy taroqlarga joylaydigan bo'lsangiz 6 oylik qamoq yoki 500 000 AED gacha jarima bilan jazolanasiz. Bundan tashqari, hukumat binolari, masjidlar va namoz o'qiyotgan odamlarni rasmga olish ham mumkin emas.

Jamoat transportida huquqbazarliklar: Dubaydagi eng qulay transport bu metro hisoblanadi. Biroq boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, bu yerda yo'lovchilar uchun juda ham ko'p qoidalari va jarimalar mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

- Boshqalarni bezovta qiluvchi harakatlarni qilish	100 AED
- Stansiyada uqlash	300 AED
- Noto'g'ri vagonga chiqish	100 AED
- Hayvonlarni tashish	100 AED
- Chekish, ichimliklar ichish, saqich	100 AED
- Spirli ichimliklar tashish	500 AED
- Homilador ayollar yoki nogironlar joyida o'tirish	100 AED
- Favqulotda vaziyatlar tugmasidan noto'g'ri foydalanish	2000 AED

